جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!


Jadid

2024-yil 14-iyun
№ 25(25)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

OYDINLAR

“ ...Ustoz Said Ahmad haqida xotira yozmoqchi bo‘lgan kishi, adib bilan hech bo‘lmasa bir marta suhbatlashgan yoki biror sayohatda tugun-pugun ko‘tarishga yordamlashvorgan bo‘lsa, ikki yil emas, umrining oxirigacha bu to‘g‘rida do‘st-qadrdonlariga qo‘shib-chatib gapirib yurishi aniq...”



(4-sahifada o‘qing).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORI

MUBORAK QURBON HAYITINI NISHONLASH TO‘G‘RISIDA

Muborak Qurbon hayitining ma’naviy hayotimizda mehr-oqibat, bag‘rikenglik, muruvvat, do‘stlik va hamjihatlik kabi ezgu tamoyillarni mustahkamlash borasidagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Ushbu qutlug‘ ayyomni munosib kutib olish va yuqori saviyada o‘tkazish, muqaddas islom dinining insonparvarlik g‘oyalari hamda milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulug‘lash maqsadida:

1. 2024-yilda muborak Qurbon hayitining birinchi kuni **16-iyun – yakshanba** kuniga to‘g‘ri kelishi to‘g‘risida O‘zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma’lumot uchun qabul qilinib, yurtimizda **16-iyun** kuni Qurbon hayiti bayrami sifatida keng nishonlansin.

2. Quyidagilar:

a) Mehnat kodeksining 208-moddasiga muvofiq:

ishlanmaydigan bayram kuni hisoblanuvchi Qurbon hayitining birinchi kuni dam olish kuniga to‘g‘ri kelishi munosabati bilan ushbu dam olish kuni **17-iyun – dushanba** kuniga ko‘chirilishi;

bunda ishlab chiqarish-texnik va tashkiliy sharoitlar (mavjud uzluksiz ishlab chiqarish, aholiga har kuni xizmat ko‘rsatish, navbatchilik asosida ishlash va boshqalar) tufayli ishlanmaydigan bayram kunlari to‘xtatib qo‘yish mumkin bo‘lmagan ishlarni bajarishda dam olish kunlari ko‘chirilmasligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabrdagi “2024-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida”gi PF–213-son Farmoni bilan **18-iyun – seshanba** kuni barcha xodimlar uchun qo‘shimcha dam olish kuni etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda muborak Qurbon hayitini xalqimizning **milliy an’ana va urf-odatlariga uyg‘un holda** o‘tkazish uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Turizm qo‘mitasi Transport vazirligi bilan birgalikda yurtdoshlarimiz uchun muborak Qurbon hayiti kunlarida **mo‘tabar ziyoratgohlar va tarixiy qadamjolarga ziyoratlarni tashkil etish** maqsadida qulay sharoit va imkoniyatlar yaratsin.

5. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Qurbon hayitini nishonlash bilan bog‘liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi M.M.Kamilov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,

2024-yil 11-iyun

FAN RAVNAQI

Matematika masalani hayotdan oladi

va uni matematik usullar bilan yechib, amaliy ravishda hayotga qaytaradi



O‘zbekiston Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti direktori, O‘zbekiston Qahramoni, senator, fizika-matematika fanlari doktori, akademik Shavkat Ayupov bilan matematika sohasidagi izlanishlar, yurtimizda fan va ta’lim tizimida kechayotgan islohotlar borasida suhbatlashdik.

Salohiyatli olim operator algebralari, nokommutativ integrallash va kvant ehtimollar nazariyasi bo‘yicha o‘z ilmiy maktabiga ega. U zamonaviy matematika sohasiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Butunjahon fanlar akademiyasi (TWAS) akademigi hamda Abdus Salom nomidagi Xalqaro nazariy fizika markazi (ISTR) a’zosi etib saylangan.

– Matematika – hayotning asosi, deymiz. Bu murakkab fanni o‘qitishda nimalarga e’tibor berishimiz kerak?

– Matematika chetdan qaralganda murakkab fanga o‘xshaydi. Sababi, uni ibtidosidan, boshidan o‘qimasa, tushunib bo‘lmaydi. Men doim matematikani o‘rganishda o‘qituvchining, ayniqsa, maktab o‘qituvchisining o‘rni juda katta ekanligini ta’kidlayman. Chunki bu fanning amaliy ahamiyati tushuntirib berilsa, o‘zlashtirishi past bolalar ham qiziqib qoladi. Aksincha, murabbiy qolipga tushib, faqat qoida va teorema yodlatib, o‘quvchilarning tushunmagan savollariga javob bermay dars soatini o‘tkazsa, qarabsizki, ikki-uch darsdan so‘ng bolalarda “Matematika umuman tushunib bo‘lmaydigan fan ekan”, degan noto‘g‘ri tasavvur hosil bo‘ladi.



(Davomi 3-sahifada).

QARDOSHLIK

Ota yurt mehrigiyosi



Xalq ong-tafakkurida biron-bir tushuncha, tasavvur, ifoda qanday paydo bo‘ladi? Surishtirsangiz, har birining o‘z sababi, omili va tarixi borligi oydinlashadi.

Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 6-7-iyun kunlari Turkiyaga rasmiy tashrifi doirasida bir necha yangi ifodalar jarangladi. Bular orasida, xususan, xalqlarimiz va davlatlarimiz haqidagi: “Bir millat, ikki davlat”, “Turkiya – o‘zbekistonliklarning ikkinchi uyi” kabi yangi ifodalar qayta-qayta yangradi. Ular ikki xalq ong-tafakkurida ajib bir yaqinlik, mehr-muhabbat va o‘zgacha his-tuyg‘u paydo qildi. Shu tariqa o‘zaro do‘stligimiz-qardoshligimizni quvvatlaydigan: “O‘zbekiston – turkiyaliklar uchun ota Vatan”, – degan ifodani yangi ma’no-mazmun bilan boyitdi.

Strategik hamkorlikning yangi bosqichi

Tashrif doirasida 19 ta muhim hujjat imzolandi. Bular ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar rivojida tamoman yangi sahifa ochilishiga xizmat qiladi, albatta. Aniqrog‘i, bu tashrif O‘zbekiston – Turkiya o‘rtasidagi strategik hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi.

Oxirgi besh yilda Turkiya O‘zbekistonning asosiy hamkor davlatlar to‘rtligidan joy olib kelmoqda.

(Davomi 2-sahifada).

BEDOR O‘Y



Keyingi yillarda O‘zbekiston axborot makonida ko‘plab erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari paydo bo‘ldi. Jamiyatda o‘z fikri va so‘ziga, ko‘p sonli auditoriyasiga ega bosma va elektron nashrlar safi tobora kengaymoqda. So‘z erkinligini ta’minlash, axborot makonini erkinlashtirish yo‘lidagi islohotlar davlat va xalq o‘rtasidagi birdamlikni, o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qilayotgani ayni haqiqat.

Media makonni kengaytirish, axborot resurslari sonini ko‘paytirish yo‘lida amalga oshirilgan ishlar natijasida ilgari sanoqligina bo‘lgan, bori ham asosan “filtrlangan” ma’lumotlarni berishga xizmat qilgan OAVlar o‘rnini bugun son-sanoqsiz axborot kanallari egallagan. Xususan, “YouTube” videohosting platformasi o‘zining keng imkoniyatlari bilan mamlakatimizda yoshlar va kattalar orasida ham birday ommalashgan. Undagi yangi bilimlar berishga ixtisoslashgan turli kontentlar, ta’lim loyihalari yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Muhimi, “YouTube”da xususiy kontent yaratuvchilar bilan bir qatorda ko‘p hollarda davlat tashkilotlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar ham foydali loyihalarni yo‘lga qo‘ymoqda. Xususan, Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan boshlangan “O‘zbekistonlik” loyihasi mamlakatimiz yoshlari uchun haqiqiy topilma bo‘ldi, desak adashmagan bo‘lamiz. Loyiha doirasida tayyorlangan ko‘rsatuvlarda taqdir taqozosi bilan xorijiy mamlakatlarda yashab, katta muvaffaqiyatlarga erishayotgan yurtdoshlarimiz hamda dunyoning nufuzli ta’lim dargohlarida tahsil olayotgan tirishqoq o‘zbek yoshlari hayoti to‘g‘risida hikoya qilinadi. Mazkur loyiha yurtimizdan yetishib chiqqan iqtidorlar bugun dunyoning manaman degan kompaniyalarida, ilm markazlarida faoliyat ko‘rsatayotgani, bu yurtning farzandlari faqat qora mehnat bilan shug‘ullanuvchi ishchilardangina iborat emasligi hamda dunyoni o‘zgartirishga qodir vatandoshlarimiz bisyor ekanligini keng ommaga namoyish qilishdek ezgu maqsadni ko‘zlagani bilan ham ahamiyatlidir.

(Davomi 6-sahifada).

KINO SAN’ATI

“Shunday film yaratsa bo‘lar ekan-ku!”

Bundan uch yil muqaddam kino san’ati bo‘yicha o‘tkazilgan matbuot anjumanida muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan Buxoro xonligining mashhur sarkardasi, Samarqand shahri hokimi Bahodir Yalangto‘shning hayoti va faoliyati aks ettirilgan tarixiy film yaratilajagidan xabardor bo‘lgan edik. Ko‘pchilik ilhaqlik bilan kutgan ana shu filmning nihoyat yaqinda tomoshabinlarga taqdim qilinishi mamlakatimiz madaniy hayotida o‘ziga xos voqeaga aylandi.

Ayni kunlarda O‘zbekiston Milliy kino san’ati saroyi va poytaxtimizdagi qator kinoteatrlarda katta muvaffaqiyat bilan namoyish qilingan “Bahodir Yalangto‘sh” badiiy filmi Kinematografiya agentligi va Samarqand viloyati hokimligi hamkorligida suratga olingan. Odatda biz bir soatning nari-berisidagi filmlarga o‘rganib qolganmiz. Bu kinoasar esa qariyb ikki yarim soat davom etganiga qaramay, kino zalini hech kim tark etmayapti. Muhimi, hammaning tilida bir gap: “O‘zimizda ham shunday filmlar olsa bo‘larkan-ku!”

(Davomi 6-sahifada).



Ota yurt mehrigiyosi



Boshlanishi 1-sahifada.

Natijada o‘zaro savdo hajmi 1.5, qo‘shma korxonalar soni 2, O‘zbekiston iqtisodiyotiga turkinvestitsiyalari hajmi 2.5 barobarga oshdi. Ikki davlatning yirik shaharlari o‘rtasida haftasiga 90 ta parvoz amalga oshirilmoqda, Turkiyadan kelayotgan turistlar oqimi 3 barobarga ko‘paydi. Yaqin kelajakda ikki tomonlama savdo hajmini 5 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. 2018-yili O‘zbekiston – Turkiya Strategik hamkorlik kengashi tashkil etilgan edi.

Shavkat Mirziyoyev tashrifi doisrasida Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilish yakunida ikki davlat rahbari keng qamrovli strategik sheriklikni chuqurlashtirish to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiya imzoladi.

Do‘stlik, do‘stlik va yana do‘stlik!..

Boshqa davlat yoki xalqlar bilan mustahkam do‘stlik iplarini bog‘lamay turib taraqqiy etgan biron-bir davlat yoki xalq yo‘q. Buni qadim tariximiz ham isbotlaydi, yaqin o‘tmishimizda ham ko‘ramiz, kelajagimiz ham shuni taqozo etadi.

Turkiya – turkiy davlatlar orasidagi aholisi eng ko‘p, ya’ni 85 million kishi bo‘lgan katta mamlakat. Ana shunday yirik, biz bilan qadimiy rishtalarga ega, qardosh, zabondosh, dindosh, madaniyatlarimiz o‘zaro qovushgan, bordi-keldilarimiz eski zamonlardan rivojlangan bir davlat bilan hamkorlik – Turkiya uchun ham, O‘zbekiston uchun ham, ikki do‘st xalq uchun ham suv bilan havodek kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi davlat ordeni bilan taqdirlanishi ramziy ma’noga ega. Bu bir davlat xalqining ikkinchi davlat xalqiga mehr-muhabbatining izhori sifatida baholanadi. O‘zi Turkiya Respublikasi davlat ordeni Turkiya bilan aloqalarini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan, o‘zaro do‘stlikni yuksak darajalarga ko‘targan davlat arboblariga beriladi. O‘zbekiston yetakchisining shunday yuksak mukofotga munosib ko‘rilishi zamirida alohida ma’no-mazmun mavjud. Bu amalda Shavkat Mirziyoyevning ana shu ikki davlat, ikki xalq o‘rtasidagi ikki taraflama manfaatli hamkorliklar, o‘zaro do‘stlik, birgalikdagi taraqqiyot, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy, ilmiy, ta’limiy aloqalarning haqiqiy tashabbuskori bo‘lgani uchun berildi.

Bugun Turkiya – birinchidan, dunyodagi 19 davlat va Yevropa Ittifoqidan iborat “kuchli yigirmatalik” tarkibidagi yetakchi, ikkinchidan, yillik yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga taqsimoti bo‘yicha bizdan besh-olti baravar yuksak ko‘rsatkichga erishgan mamlakat. Darhaqiqat, bu qardosh yurt bilan do‘stlik bizning rivojlanishimiz uchun muhim omillardan biri bo‘ladi. Shunday ekan, O‘zbekiston Respublikasining Turkiya Respublikasi bilan strategik hamkorligi va buni yanada kuchaytirishga qaratilgan bu sa’y-harakatlar bizning umidli kelajagimizdan darak beradi.

Safarning siri

Bir mamlakat va uning xalqini bilish uchun o‘qish-o‘rganishning o‘zi kamlik qiladi. Shu yurtga safarga borish lozim.

Turkiyada 2019, 2022 va 2023-yillarning yozida jami to‘rt oycha dam olishga to‘g‘ri kelgan. Ko‘proq Anqara shahrida yashaganmiz. Shuning uchun bu gal aynan ana shu poytaxt shahar haqidagi ayrim o‘y-fikrlarimni bayon etgim keldi.

Taraqqiyotda bizdan oldinlab ketgan mamlakatga safarning bir yaxshi jihati bor. Hamma narsani solishtirasiz. Erishilgan yutuqlarning tezroq o‘zimizga ham kirib borishini orzulaysiz. Shunga o‘zingiz ham bevosita hissa qo‘shgingiz kelaveradi. Bu esa tinimsiz fikrlashga undaydi.

Anqara

Anqara – Turkiyaning poytaxti. Markaziy Onado‘lidagi 24 ming 521 kvadrat kilometrni egallagan megapolis shahar. Dengiz sathidan 938 metr balandlikda joylashgan. Rasmiy ma’lumotga ko‘ra, aholisi – 6 milliondan ortadi. Demak, bu yerda Toshkentdagidan ikki barobar ko‘p kishi yashaydi.

Bizda va atrofimizdagi mamlakatlarda poytaxt aholisi eng katta shahar hisoblanadi. Faqat Qozog‘iston poytaxtini respublikadagi aholisi eng ko‘p shahar bo‘lgan Olmaotadan Ostonaga ko‘chirdi. Shunga o‘xshash, Anqara ham Turkiyaning nufusi eng katta shahri emas. Istanbulda mamlakat aholisining qariyb to‘rtdan biri, ya’ni 16 milliondan oshig‘i istiqomat qiladi. Bu shaharda xorijdan ham million-million odam kelib yashaydi. Turkiyaga borgan o‘zbeklarimizning asosiy qismini ham shu yerdan topasiz.

Birinchi jahon urushida Turkiya mag‘lubiyatga uchradi. Shu vaziyatda mamlakatda milliy ozodlik harakati boshlandi. Anqara shu harakatning markaziga aylandi. Mustafo Kamol Otaturk (1881-1938) 1923-yilning 13-oktyabrida poytaxtni Anqaraga ko‘chirdi. Ikkinchi sabab ham bor edi: yangi davlat tuzilganini xalq ongiga to‘la singdirish uchun ham poytaxtni Istanbuldan ko‘chirish lozim edi.

Iqtisod, iqtisod, iqtisod...

Anqaradagi magazinlarga kirasan. “Lof” deb hisoblamasangiz, ochig‘ini aytay, odamning jonidan boshqa hamma narsa bordek. Bu kishini beixtiyor o‘ylashga undaydi. Peshtaxtalarda turgan shuncha narsani odamlar yaratgan. Buning uchun aqli, ilmi, tajribasi, qo‘li, kerak bo‘lsa, oyog‘ini ham... ishlatgan-da. Nima uchun? Yashash uchun, albatta.

Hamma mamlakat xalqi ham yashash uchun mehnat qiladi-ku, deyishingiz mumkin. Yo‘q-da, rivojlangan davlatlarda boshqalardan kam bo‘lmagan holda yashash uchun kurash boradi.

Tabiiyki, do‘konlardagi narsalardan sotib olging keladi. Chunki ularning hammasi odam uchun ishlab chiqarilgan. Ularning bari – insonning yashashi uchun zarur narsalar, axir. Ammo ulardan og‘rinmay sotib olishing uchun cho‘ntagingda puling yetarli bo‘lishi lozim. Puling yetarli bo‘lishi uchun sen ham oqilona mehnat qilgan, tuzukkina daromad topgan bo‘lishing, boshqacha aytganda, tenglar ichra teng bo‘lishing kerak. Sen ham nimadir yaratishing, uni bozorga olib kirishing, iqtisod tili bilan ifodalaganda, tovar almashtirishing shart.

Qoloq mamlakatlar aholisining katta qismi shuni eplay olmaydi-da. Dunyoning bosh muammosi shu o‘zi. Bu muammo – afsuski, xalqimiz boshida ham bor. Buning oddiygina isboti shuki, odatda rivojlangan davlat iqtisodi o‘zidan pastroq davlat bozoriga tayyor mahsulot olib kiradi, bunisi esa unga xomashyo sotadi. Hamma vaqt tayyor mahsulot sotgan yutib, xomashyo va yarim xomashyo sotgan yutqazadi. To‘g‘ri, bizdan bu mamlakatga ishchi kuchi ham boradi. Ammo, asosan, eng kam haq to‘lanadigan ishlarga boradi-da.

“Bozor” deganda bundan buyon dunyo bozorini tushunish kerak.

Biz, ya’ni yoshi kattalarning bo‘lganimiz bo‘ldi. Lekin ro‘paramizda kuchli va shafqatsiz raqobatga asoslangan bozor munosabatlari ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Nima qilsangiz, qiling, boringizni bag‘ishlang, mablag‘ingizni sarflang, bolangizni samarali mehnat qilib, bu kurashda yutib chiqadigan kadr qilib tarbiyalang! Raqobatni mahallangiz, tumaningiz, shahringiz, viloyatingiz, boringki, mamlakatimiz miqyosidagina deb o‘ylasangiz, yana yomon adashasiz. Axir, jahon bozori bitta. O‘zbekistonimiz bu bozorga kirib borganiga 33 yil bo‘lyapti. Endi ana shu ulkan bozorda yutsakkina, yutgan hisoblanamiz.

Xulosa juda oddiy: bizga dunyo bozoridagi katta raqobatga bardosh bera oladigan farzandlar kerak!

Yozning chillasida to‘n yodga tushsa-ya...

2000-yil dekabrida sovuqroq Toshkentdan juda sovuq Moskvaga borib tushgan, undan kuz mahalidek iliq Qibris (Kipr)ga yo‘l olgan edim. O‘zimni xuddiki dekabrdan sentyabrning oxirlariga borib qolgandek his qilib, hatto O‘rtayer dengizida cho‘milib ham olganman o‘shanda.

Bu gal 40-44 daraja issiq bo‘lib turgan Toshkentdan 35-37 darajali Alanyaga borib, bir necha kundan keyin esa birdan kunduzlari 22-24, kechalari 10-12 darajali Anqaraga tushdik. 24 daraja bizdagi aprel oyining boshlarini eslatadi. Kostyum-shimda ham sovqotgandek yurasan-da. Avvaliga jazirama issiqdan keyin muzdakkina bu havo badaningizga yoqqandek ham tuyuladi. Ammo kechasi O‘zbekistonda – uyingizda qolgan maydado‘ziy qilib tikilgan urgutiy choponingiz esga tushadi-ku. Yoki xuddi Toshkentdan Burchmullo tog‘iga borib qolgandek bo‘lasiz. Tez-tez yomg‘ir ham quyib turibdi. Aytishlaricha, Anqarada yoz bizdagidan salqinroq bo‘lsa ham, kuz bizdagidan ko‘ra issiqroq kelar, ham ancha cho‘zilar ekan.

Tosh-u tarozi

Xalq – dono-da. Bir maqolda:

Har joyni ko‘p qilmagin orzu,

Har joyda bor – tosh-u tarozu, – deyiladi.

Shunga o‘xshash, bu tog‘ shaharlarning ham o‘z muammolari bor ekan. Biri – shuki, ko‘chalarga chiqindi yig‘ish qutilarini o‘rnatib bo‘lmaydi. Chunki yer tekis emas-ku. U, albatta, bir tarafga qiyshayib turadi. Shuning uchun u kutilmaganda yo bir tarafga qulaydi, yo pastga qarab surilib ketib, odamlar, xususan, o‘ynab yurgan yosh bolalar hayoti, harakatlanayotgan transport vositalari uchun juda katta xavf tug‘diradi. Hatto qattiqroq shamolda ham u pastga qarab dumalashi hech gap emas. Bunday hodisalar ko‘p bo‘lgani uchun chiqindilarni yerda to‘plashga majbur bo‘lishgan. Buning juda ko‘p noqulay taraflari bor, albatta. Sochilib-titilib ketadi, suyuq chiqindilar asfalt bo‘ylab oqib, yo‘laklarda piyodalarning yurishiga xalaqit qiladi, mashinaga qo‘lda yuklashga to‘g‘ri keladi va hokazo.

Muammosiz mamlakat yo‘q ekan-da bu dunyoda.

Xayriyaning noyob turi

Turkiyada ishlab chiqarilgan poyabzallarning dovrug‘i ketgan. Soha yaxshi rivojlangan. Lekin...

Hamma ham tez-tez yangisini olib kiyaverish imkoniga ega emasligi ayon-ku. Buning ustiga, mamlakatda 5 million atrofida suriyalik qochqinlar istiqomat qiladi. Mehnat migratsiyasi tufayli nisbatan kam taraqqiy etgan davlatlardan ish izlab borganlar ham 5 milliondan kam bo‘lmasa kerak.

Imkoni borlar tez-tez poyabzalini yangisiga almashtirib ketaveradi. Lekin eskisi ham hali binoyidek bir necha yil korga yaraydigan holatda. Shuning uchun uni axlatlarga qo‘shib, tashlab yuborishmaydi. Odam ko‘p o‘tadigan yo‘laklar chet-chetlarida tez-tez bir muddat kiyilgan poyabzallar ko‘zga ko‘rinadigan yerlarga ilib qo‘yilganiga duch kelasiz. Muhtojlar indamaygina olib ketaveradi.

Bu ham – xayriyaning bir turi-da.

Ayting-ayting, mamlakatda boy ko‘paysin ekan. Boy ko‘paysa, kambag‘allik kamayib boraveradi. Buni har qanday rivojlangan mamlakat misolida ko‘rib turibmiz.

Eng qimmat ne’mat

Bilgan biladiki, bu dunyoda inson uchun suv eng qimmat ne’mat hisoblanadi. Suvli yerdagina hayot bor.

Toshkentda gaz, elektr toki, mobil telefondan foydalanishda to‘langan puli tugagan zahoti to‘xtatib qo‘yiladigan tizim joriy etilgan. Anqarada suvga haq to‘lashda ham shunaqa tizimdan foydalaniladi. Ammo suvning narxi juda qimmat. Hamma suvni tejab ishlatishga majbur. Tejashning ikki oddiy ko‘rinishini aytsam, ahvolni osonroq ko‘z oldingizga keltirasiz. Birinchisi – ko‘p qavatli uylarga vanna qo‘yilmaydi. Vannadan foydalanish suvning uyini kuydiradi-da. Cho‘milish juda qimmatga tushib ketadi. Shuning uchun hamma dushda chayinib qo‘ya qoladi. Aytishlaricha, dush ham suvni ko‘p sarflagani uchun aksar aholi avval chelakni iliq suvga to‘ldirib olib, cho‘mich bilan tejab-tergab foydalanar ekan. Holbuki, vannaning qadim vatanlaridan biri – Turkiya. Istanbuldagi usmonlilar saroyi bo‘lgan To‘pqopida ikki ming yillar ilgari yaxlit marmarlardan ishlangan qadimiy vannalar muzeyga qo‘yilgan. Ikkinchisi – idish-tovoqlarni qo‘lda yuvganda suv ko‘p isrof bo‘ladi. Shuning uchun ularni mashinada yuvishadi.

2023-yilning yozida Anqarada suv narxi bizdagiga solishtirganda markaziy oqava suv tizimi bor joylardagidan 10, bu tizimga ulanmagan yerlardagidan 20 barobar qimmat edi. Hamma joyda ham gap o‘sha: xalq ko‘rpasiga qarab oyoq uzatishga majbur.

Turkiyada gaz ham qimmat. Avtomobillarga yoqiladigan metan gaz yo‘q. Faqat propan bor. Aksar uylarning tomida quyosh issig‘idan foydalanib, suv isitish tizimi o‘rnatilgan. Suv avval katta temir bochkada isiydi, keyin u shisha plastinkalar orqali sekin oqib o‘tib, yana qiziydi. Bu tizim, hatto, qishda ham suvni ilitib bera oladi. Aksar aholi ana shu tabiiy energiya vositasida isitilgan suvdan foydalanadi.

Bizning ham kelajagimiz – shu.

Suvni isrof qilish – nonni isrof qilishdek gap.

Dunyoda, ehtimol, hamma narsani ishlab chiqarishning yo‘li topilar, lekin suvni ishlab chiqarib bo‘lmaydi. Kiprda dengiz suvini tuzidan tozalab, quvurlar orqali yashash joylariga uzatishadi. Lekin undan iste’mol qilishda foydalanish mumkin emas. Ichimlik suvini sotib olishadi. U mamlakatda yog‘gan yomg‘ir-qorlardan hosil qilinadi.

Tog‘ uyi

Jizzax viloyatining Forish tumanidagi Uchma qishlog‘ida tog‘dan tushayotib, kutilmaganda o‘zimni birovning uyi tomida ko‘rib qolganman. Uy qiyalikda qurilsa, tomi bir tarafdan borib tog‘ga taqaladi-da. Bunday hovlilarda tomga chiqish uchun narvonga hech hojat yo‘q.

Germaniyaning Bavariya o‘lkasidagi Alp tog‘ida bunyod etilgan qasrning devori – tog‘ning o‘zginasi.

Anqarada tog‘ga taqalib solingan ko‘p qavatli uylarni ko‘rdim. Bizda ko‘pqavat uylar 1-qavatdan boshlanadi. Lekin Anqarada qiyalikda qurilgan aksar baland uylarning tepa tarafi bizdagidek 1-qavatdan boshlanadi-yu, ammo chuqurlik tarafda “-1” va “-2”-qavatlar ham bor. Ularning egalari ko‘cha tarafdan uyga kirib, kvartiralariga borish uchun yerto‘laga tushib ketishadi.

Talab va taklif

Iqtisod tilida “talab” aholining xarid ehtiyojini anglatadi. “Taklif” esa – bozorga sotish uchun chiqarilgan mahsulot. Hayot izchil davom etishi uchun bozorda talabga yarasha taklif bo‘lishi shart. Aholining qo‘lida puli bo‘lsa-yu, sotib olaman, desa, unga kerakli tovar topilmasa, bu – juda yomon narsa. Aholining qo‘lidagi pulni ola bilmagan jamiyat, albatta, tanazzulga uchraydi. Ifodali qilib aytganda, tegirmonga suv bormay qo‘ysa, to‘xtab qoladi-da.

Biz tengilar sho‘ro davlatining qanday tarzda tanazzulga yuz tutganini ko‘zlarimiz bilan ko‘rganmiz. Bir tish pastasi, bir litr paxta yog‘i, bir sovun... kabi kundalik ehtiyojlar uchun zarur eng muhim tovarlar ham anqoning urug‘i bo‘lib qolar edi. “Chilonzorda sotilyapti ekan”, – degan xabarni eshitsak, Sergelidan o‘sha yoqqa yetib borib, turnaqator navbatlarda turar edik. Magazinlarning peshtaxtalari bo‘shab qolgan edi. Toshkentning markaziy univermagi bir-bir o‘sha paytlar nom qozongan “Быт может” degan atirni sotsa, navbat qariyb bir chaqirimga cho‘zilar, ur-to‘polon bo‘lib ketar edi.

Holbuki, bozorning bitta “oltin” qoidasi bor: aholi nimani ko‘p sotib olayotgan bo‘lsa, o‘shani ko‘p chiqarish kerak. Xalq shu atirni olyaptimi, shuni ko‘paytirib tashlamaydimi?!

Turkiya savdo do‘konlaridagi tovarlar xilma-xilligi-yu mo‘lligini ko‘rib, ko‘zingiz chaqnab ketadi. Aksariyati shu mamlakatning o‘zida ishlab chiqarilgan. Nazarimda, taklif talabdan ustun. Shuning uchun do‘konga kirdingizmi, demak, sizning pulingiz bor. Pulingiz bormi, siz janobsiz. Sotuvchilar sizning xizmatingizda. Ular shirin muomalasi va sifatli xizmati bilan tovarini sotib, sizning pulingizni olish dardida. Tovar sotildimi, bu pulning asosiy qismi ishlab chiqaruvchiga qaytadi. Pul ishlab chiqaruvchiga qaytib bordimi, u sohani yana va yana rivojlantiraveradi-da. Tegirmon to‘xtab qolmaydi.

Bozor aravasining g‘ildiragi bir aylanib, muayyan tezlik paydo qilib olganidan keyin uni hech qanday kuch to‘xtatib qololmaydi, chamamda. Mulkdorning qo‘lida mablag‘ ko‘payib borgani sari u ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish, kam xarajat sarflab, ko‘p foyda oladigan usullarni ishga solishni o‘ylayveradi. Mehnatni kamaytirish yo‘llarini topadi. Shu tariqa tannarx pasayadi. Buning uchun esa, avvalo, ilmni rivojlantirish zarur. Ishlab chiqarish va xizmatlardan tushgan foydaning bir qismi tabiiy ravishda ilmni taraqqiy ettirishga sarflanadi.

Imkon qadar kam mehnat sarflab, ko‘p va sifatli mahsulot ishlab chiqarilgani uchun qator sohalar, xususan, yengil sanoat tovarlarining narxlari bizdagidan ko‘ra ancha arzon. Dehqoncharoq qilib aytsam, Turkiyaga borib, oila a’zolaringizga bir sidra-bir sidra kiyim-kechak sotib olsangiz, bemalol yo‘lkiraga sarflagan haqingiz chiqib ketadi. Sayohatingiz esa yonga qoladi.

Hazillarimiz ham o‘xshaydi-ye!

Anqarada ko‘p bor taksida yurishga to‘g‘ri keldi. Biz o‘zaro gaplashamiz, albatta. Haydovchi bitta-ikkita so‘zimizni anglaganday bo‘ladi. Lekin, ochig‘i, tillarimiz o‘zaro ko‘p ham yaqin bo‘lmay qolgan. Mamlakatimizni so‘raydi. Aytamiz. Savollari ko‘payadi. Tabiiyki, bizning ham nimalarnidir undan bilib olgimiz keladi.

Orada bir haydovchi bizning nutqimizdagi “qaynana” so‘zini ilg‘ab qoldi-ku. Ular ham “kaynana” der ekan-da.

– O‘g‘limizning qaynota-qaynonasi ham Turkiyaga dam olishga kelishgan. Ko‘rishishimiz kerak, – dedim suhbatimiz nima haqdaligini bildirish uchun.

– O‘-o‘-o‘! – dedi shunda u o‘g‘limizga o‘girilib. – Ko‘rishmasang, bo‘lmaydi, bu – davlat siyosati masalasi-ya!..

Hazillarimiz ham o‘xshab ketadi-yey.

“Dunyoning Turkiyadan o‘rganadigan yeri bor!..”

Zo‘r gap-a? Nima dedingiz?

Anqara – Kemer avtobus marshruti yo‘lida shu shiorni o‘qidim. Zo‘r shior. To‘g‘rimi?

Turkiya mustamlakachilikni ko‘rmagan. Aksincha, usmonlilar davrida atrofidagi katta hududda hukm surgan imperiya bo‘lgan. Turklar turkiy xalqlarning sotsializmni ko‘rmagan yagona vakili ham hisoblanadi. Turkiyadagi bozor iqtisodiyoti munosabatlari jamiyatning tadrijiy taraqqiyoti mahsuli sifatida yuzaga chiqqan.

Xullas, O‘zbekistonimizning bu yurtdan o‘rganadigan jihatlari ancha.

So‘zning ham to‘tiyosi bo‘ladimi?

Bo‘ladi! Xorijga chiqqaningizda “o‘zbek” degan kalima siz uchun eng to‘tiyo so‘zga aylanadi.

Antaliya – Anqara avtobusi Po‘latli shahridan ham o‘tadi. Yo‘lda bir bino tepasida “O‘zbek” (“Üzbek”) so‘ziga duch keldim. Anqaraning Bag‘lum mavzesiga kirib kelaverishda chap qo‘lda yana bir bino ustidagi yozuvda shu so‘zni o‘qidim. Poytaxt ko‘chalaridan biridagi uy devorida “Üzbek Ar. №7” tarzidagi yozuv mavjud. Turkiyada bir necha yil o‘qigan mutaxassisning fikriga ko‘ra, Bu yerda odamlarga familiya berish boshlanganda ba’zilar: “Biz – o‘zbeklardanmiz”, – degan. Ularga shu so‘z familiya tarzida rasmiylashtirilgan. Chunki shuncha asr mobaynida turli sabablar bilan bu yurtga o‘zbeklar kelib, qolib ketgani aniq. Binolar esa shunday familiyali kishilarga tegishli imorat yoki muassasa ekanini bildiradi.

Darvoqe, Turkiyada familiya otadan o‘g‘ilga meros bo‘lib o‘tadi. Bizdagidek bobo boshqa, ota boshqa, nevara yana bir boshqa familiya yo‘q ularda.

Anqara shahrida Turkiy davlatlar bayroqlari maydonida xorazmshohlar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, temuriylar, boburiylar bayroqlari bor. Bu tariximiz birligini yorqin ko‘rsatib turadigan bir ramz, albatta.

Biz Turkiyaga “O‘zbekiston” so‘zi katta salmog‘i bilan kirib borishini istaymiz.

Shukr, bir do‘konda sotuvchi: “Bizda faqat paxta gazmoldan tikilgan kiyimlar sotiladi. Paxtasi – sizning O‘zbekistondan olib kelingan”, – dedi. Xursand bo‘lib ketdim.

Bir yuk mashinasi haydovchisi bilan suhbatlashib qoldim. “O‘zbekistonda menga ish bormi, borar edim”, – dedi. O‘zlaridagidan yuqoriroq haq to‘lanadigan ishning daragini topsa, keladi, albatta.

Bir professor o‘g‘limizdan bizdagi oliy ta’lim muassasalari professor va o‘qituvchilari oyliklarini surishtiribdi. Ayrim institut va universitetlarda yaxshi maosh to‘lanyapti. Bularni eshitib: “Ish topsang, borib, dars berar edim”, – debdi.

Bu suhbatlar ikki narsadan dalolat beradi. Birinchisi, bizda, shukr, hayot sekin-asta yaxshilanib boryapti. Ikkinchisi, Turkiya pandemiyadan, 2022-yili ketma-ket yuz bergan zilzilalardan keyin hali ko‘p jihatdan o‘zining 2019-yilgi yuksak darajasiga ko‘tarila olganicha yo‘q, nazarimda.

Yana kim bilsin?

Zamonaviy savacho‘p

Bolaligimda onam ko‘rpa-to‘shak uchun paxta savamoqchi bo‘lsalar, hovlimizdagi 200 yillik tutga chiqib, to‘rtta xodacha kesib tushardim-da, po‘stini shilib, savacho‘p yasab berardim.

Yaqinda uydagilar yangi ko‘rpa-to‘shak tikadigan bo‘lishdi. Savacho‘p kerak. Tutni qaydan topaman? Kalla ishlab qoldi-ku: uyni ta’mirlaganda ortib qolgan 15 millimetrli bir quloch-bir quloch plastik quvurdan ikkita chiqarib berdim.

Anqaraning Kechio‘ran ilchasida joylashgan Bag‘lum mavzesidagi Kavkaz mahallasida bir muddat yashadik. Biz qo‘ngan ko‘pqavatli uy hovlisiga ertalabdan bir ayol sholcha yoydi-da, qoplardan Turkiyada bo‘ladigan oppoq qo‘yning junidan bo‘shatdi. Qo‘lida bir qulochlik haligi plastik quvurdan. Ammo ikkita emas, bitta. Chunki jun paxta emas-ku. O‘ng qo‘li bilan savalab, chap qo‘li bilan unga yopishgan junni sidiradi. Yaxshilab savalasa, jun bir-biriga chirmashib, katta-katta massa paydo qilar ekan. Keyin ularni ko‘pqavatli uy atrofini o‘rash uchun o‘rnatilgan panjaralarning mixlariga osadi. Oftobda ular yana ham yoyilib, yumshab qolar ekan.

– O‘g‘limizni uylantirmoqchimiz. Kelin uchun ko‘rpa tikamiz, – dedi haligi ayol.

Muxbirligim tutib ketib, undan:

– Zamonaviy kelinlar bu jun ko‘rpalarni tutarmikan? – deb so‘radim.

– Tutsa-tutmasa, shu udumga amal qilamiz, – dedi.

Kaminani qadimiy an’anadan ham ko‘ra, zamonaviy savacho‘p ko‘proq qiziqtirdi.

Biz haqimizda ular yozsin

Toshkent bilan Anqarani solishtirib, bir xulosaga keldimki, bizning Turkiyadan o‘rganishimiz zarur jihatlar qancha bo‘lsa, Turkiyaning ham bizdan o‘rganishi mumkin bo‘lgan jihatlar bundan kam emas. Lekin bizdan o‘rganadigan tomonlar aynan nimalardan iborat ekanini ular aytsin, biz emas. Chunki mehmonlikka borib, sohibi xonadonning ayblarini aytib kelish odobdan emas.

“Bitta xalqmiz-e!”

Yaqinda Toshkentda bir nikoh to‘yida qatnashdik. Turkiyalik mehmon ham ishtirok etdi. Unga to‘y boshlanishidagi karnay-surnaylarning mohiyatini, uning janobi payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning: “Qiz chiqarsangizlar, karnay-surnay chalib bo‘lsa ham, el-ulusga ma’lum qilib qo‘yinglar”, – mazmunidagi muborak hadislariga muvofiqligini erinmay tushuntiribman, deng. Chunki bu faqat bizdagina bor deb o‘ylabman-da.

Bir kuni Buxoromizning kamina tug‘ilib o‘sgan Vobkent tumanida bo‘lib o‘tgan to‘yning jar, ya’ni mash’ala yoqib, kuyovning kelinnikiga kirib borishi jarayoni videoyozuvini jo‘natishdi. Buxoroda bunday paytda karnay, surnay va baraban chalinadi. Toshkentdagi do‘mbira u yerda yo‘q.

Tasodifni qarangki, shuni telefonda tomosha qilib turgan edim, kutilmaganda biz yashayotgan mahallada ham taqar-taqar boshlanib qoldi-ku. Xuddi o‘zimizdagidek. Otilib ko‘chaga chiqdim. Ko‘pqavatli qo‘shni uyga kuyov keldi. Surnay, katta-katta barabanlar chalindi. Uyga kirishdan oldin yarim soatcha raqs bo‘ldi. Kuyovning o‘zini ham o‘ynatishdi. Kuylarning sur’ati ham o‘xshaydi. Faqat karnay yo‘q, xolos.

Buni ko‘rgan har qanday o‘zbek: “Bitta xalqmiz-e!” – deb yuborishi aniq.

Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga rasmiy tashrifi tadbirlarida: “Bir millat, ikki davlat”, – deyilgani haq.

Sultonmurod OLIM,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

Matematika masalani hayotdan oladi

va uni matematik usullar bilan yechib, amaliy ravishda hayotga qaytaradi



Boshlanishi 1-sahifada.

Aslida matematika kishini mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi. Ko‘pchilik bu fanni faqat hisob-kitob mashqi deb tushunadi. Ammo teoremani yodlab gapirib berishning o‘zi yetarli emas. Aksincha, har bir qoidani tushunish, uning isbotini bilish zarur. Shundagina formulalar esda qoladi. Afsuski, uzoq yillar davomida maktab bitiruvchilari oliy ta’limga o‘qishga kirishda matematikasi yo‘q yo‘nalishlarni tanlashga harakat qilardi. Hozir yurtimizda ta’limga e’tibor juda katta. Prezident maktablari va ixtisoslashgan maktablar tashkil etilyapti. Ammo ming yaxshi sharoitli bino, zamonaviy laboratoriyalar bo‘lmasin, muallim o‘z fanining fidoyisi bo‘lmasa, kuchli matematiklar yetishib chiqmaydi. Bizning yoshligimizda bunday imkoniyatlar bo‘lmagan, oddiy maktabda o‘qiganmiz. Lekin o‘qituvchilarimiz shunday dars berganki, matematikaga muhabbat qo‘yganmiz.

Matematika hayot talabi o‘laroq eramizdan avvalgi davrlardan boshlab Yunoniston, Rim, Misrda rivojlana boshlagan. Keyinchalik – birinchi Renessans davrida bu jarayon Muhammad Xorazmiy nomi bilan bog‘lanadi. Shunisi ahamiyatliki, Xorazmiy ham Bag‘dod akademiyasiga borgunga qadar o‘z yurtidagi oliymaqom matematika maktabini ko‘rgan. To‘g‘ri, biz uning ustozlari kimligini bilmaymiz. Lekin Muhammad Xorazmiy fenomenining o‘zi diyorimizda qadim davrlarda sivilizatsiya mavjud bo‘lganini, fan taraqqiy etganini ko‘rsatadi.

– “Nol – sifra” atamasi atrofida bahsli mulohazalar bor. Ba’zilar aynan shu raqam Yevropa faniga Muhammad Xorazmiy tomonidan kiritilgan desa, ayrimlar esa boshqa manbalarni ro‘kach qilishadi.

– Hindlarda qadimdan raqamlar tartibi mavjud bo‘lgan. Ammo Yevropada hech kim bu sonlarni bilmagan. Ular o‘sha davrda Rim raqamlaridan foydalanishgan. Nol o‘rni bo‘sh qoldirilgan, belgi qo‘yilmagan. Xorazmiyning asosiy xizmati hind raqamlarini olib kirganida emas. To‘g‘ri, yevropaliklar ushbu sonlardan Xorazmiy asarlarini o‘qib xabar topishgan. Ammo asosiy masala bobomizning hisob tizimi yaratganida. Rim raqamlari ustida birorta amal bajarishni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Xorazmiy kiritgan usulda esa xohlagan raqamni yozish va ular ustida qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish kabi amallarni bajarish mumkin bo‘lgan. Bu juda katta yutuq va qulaylik bo‘lib, Xorazmiy asarlari Yevropaga borgach, shov-shuv bo‘lib ketgan.

Manbalarda Xorazmiy kvadrat tenglamalarni yechish usulini ham topgani aytiladi. U usullarni bosqichma-bosqich o‘rgatgan. Kitobini lotin tiliga o‘girgan tarjimon: “Al-Garizmiy bunday deydi, Al-Garizmiy bunday qiladi”, deb yozadi. Vaqtlar o‘tib, “Al-Garizmiy” ism ekanligi unutilgan. Natijada “algoritm” atamasi paydo bo‘lgan. Ya’ni algoritm biror masalani qadamma-qadam, mantiqan yechish usulini anglatgan. Mana, hozir informatsion texnologiyalar algoritm asosida ishlaydi. Xorazmiy hozirgi Ay-Ti sohasining asoschisi deb qaralsa ham bo‘ladi. Ya’ni u mantiqan, izchillik asosida fikr yuritib, muammoni yechish yo‘lini ixtiro qilgan.

Yurtimizda ro‘y bergan ikkinchi Renessansning asosida matematik bilimlar yotadi. Chunki astronomiyadagi hisob-kitoblar ham matematikaga asoslanadi. Ba’zan olimlar qandaydir matematik muammoga qiziqib qoladi. Asrlar davomida yechilmagan masalalar ham bor. Ana o‘shalarni yechish uchun yangi-yangi usullar o‘ylab topilgan. Natijada matematikaning har xil tarmoqlari rivojlangan. Masalan, algebra, geometriya, topologiya. Maktabda o‘qituvchining roli beqiyosligi shundaki, u matematik muammoni yechgach, amaliyotda bu nimaga kerakligi, qayerda qo‘llanilishini tushuntirib berishi zarur. O‘quvchi shunchaki boshqotirma yechmayotgani, uning masalasi real hayotda kashfiyotga asos bo‘lishi mumkinligini anglashi lozim. Ba’zan kap-katta odamlar ham yechayotgan masalangizni ertaga qayerda qo‘llash mumkin deb so‘raydi. Bu noto‘g‘ri savol. Chunki shunday masalalar borki, ming yildan keyin ham qo‘llanilishi mumkin.

– Hayotga tatbiq qilingan ana shunday yechimga ega real masalalar bormi?

– Eramizdan oldin bir yunon matematigi konus kesmalarni ixtiro qilgan. O‘sha paytda bunga sof matematik nazariya, amaliyotda hech qanday ahamiyati bo‘lmagan masala sifatida qaralgan. Oradan bir ming ikki yuz yil o‘tganidan keyin astronom Kepler sayyoralarning harakatini, qanday orbitada yurishini kuzatgan. O‘shanda fazogir barcha kosmik jismlar aynan shu konus kesmalar orqali harakatlanarkan, degan xulosaga kelgan. Agar bir ming ikki yuz yil avval bu masala topilmaganida edi, Kepler sayyoralar harakatini tushunmagan bo‘lardi. Lobachevskiy XVIII asrda “Lobachevskiy geometriyasi”ni ixtiro qilgan. Ushbu usul yaqin yillarda lokatsiya dasturining yaratilishiga asos bo‘ldi. Matematika o‘zini o‘zi rivojlantiradi, masalani hayotdan oladi. Uni matematik usullar bilan yechib, qachondir yana amaliy ravishda hayotga qaytaradi. Matematikaning boshqa fanlardan farqi ana shunda. Bir paytlar u faqat abstrakt, fundamental fanga o‘xshardi. Lekin o‘sha fundamental matematikaning ham vaqti yetib, kutilmagan joyda tatbiqi kelib chiqadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz qayta-qayta matematikaga urg‘u beradilar.

Matematikani yaxshi bilgan odam qaysi kasbni egallasa ham, injener, quruvchi, mexanik, shifokor bo‘lishiga qaramay, o‘z sohasida hamkasblariga qaraganda ko‘proq natijalarga erishadi. Hozir ko‘p yoshlarimiz Ay-Ti sohasi mutaxassisi – dasturchi bo‘lishni orzu qiladi. Bu hozir eng istiqbolli, kerakli kasb bo‘lib qoldi. Lekin uning o‘rnini sun’iy intellekt egallaydi.

– Sun’iy intellekt inson omili o‘rnini bosa oladimi?

– Bu sohaga bog‘liq. Ba’zi narsalarni u insondan ham yaxshiroq bajaradi. Masalan, dasturlashtirish yordamida sizni birovning ovozi bilan gapirtira oladi. Agar yomonlik qilmoqchi bo‘lsa, nomingizdan nojo‘ya gaplarni “gapirib”, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatib yuborishi ham hech gapmas. Bunday hollar allaqachon bizga tanish ham bo‘lib qoldi. Sun’iy intellekt hodisasi bir tomondan juda xavfli, ikkinchi tomondan kerakli.

– Fandagi tadqiqotlar boshqa sohalarga ham joriy qilinyaptimi?

– Albatta, foydalanilyapti. Lekin afsuski, bizda hali matematikani qo‘llash unchalik yo‘lga qo‘yilmagan. Chunki boshqa sohalarimizning rivojlanish darajasi hali matematika qo‘llashgacha yetib kelmagan. E’tibor berilsa, Nobel mukofotini olayotganlarning aksariyati Yevropa va Amerika olimlari. Chunki ularda zamonaviy, yangidan yangi uskunalar yaratiladi. Biz ularni sotib olishga olamiz-u, ishlatadigan, foydalanishni biladigan mutaxassisimiz yo‘q. Chetdan kadrlarni olib kelish juda qimmatga tushadi. Hech bo‘lmasa, zamonaviy texnologiyalarni biladigan mutaxassislarimiz bo‘lishi zarur. Muammolarning ildizi ham shunda. Shuning uchun “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali yoshlarimiz chet elga o‘qishga yuborilyapti. Ko‘z tegmasin, talabalarimiz Yevropa, AQSh universitetlarida tahsil olishyapti. Ular o‘sha yerdagi tajribani o‘zlashtirib, qanday uskuna olishni ham bilib qaytishadi.

Afsuski, har doim ham tadqiqotlarimiz falon sohada qo‘llanilyapti, deb sanab berolmaymiz. Biz hozir zamonaviy matematikani rivojlantirish bilan shug‘ullanyapmiz. Maqolalarimiz chet ellarda chop etilyapti. Qayerdadir amaliyotda foydalanilyapti. Masalan, institutimizda “Tibbiyot-biologiya-informatika” laboratoriyasi bor. Bu yerda yangi dorilarni ishlab chiqishda sun’iy intellektdan foydalaniladi. Prezidentimizning qarori bilan jahon andozalari talablariga javob beradigan noyob super kompyuter olganmiz. Oldin yangi dori topish uchun har xil kimyoviy elementlar bir-biriga qo‘shib ko‘rilar, o‘rganilardi. Hozir avvalo uning matematik modeli yaratiladi. Oldin kimyoviy xossalarni tekshirish uchun bir yil ketgan bo‘lsa, hozir kompyuter bu jarayonni bir haftada bajara oladi.

– Matematik tibbiyot tushunchasi ham ommalashmoqda...

– Iqtisodiyot sohasida oxirgi yillarda Nobel mukofotiga sazovor bo‘layotganlarning ko‘pchiligi matematiklardir. So‘nggi yigirma yil ichida Amerika matematika jamiyati ushbu fan doirasida qaysi yo‘nalishda ko‘proq doktorlik himoyasi bo‘lganini tahlil qilganida eng ko‘p natija matematik tibbiyotda qayd etilgan. Sababi avvallari tibbiyot sof tajriba fani bo‘lib, nazariyalar ham kam bo‘lgan. Hozir apparatlar juda ham ko‘p, bilimlar bazasi kengaygan. Baza ko‘p bo‘lsagina unga yangi fan kirib boradi, tahlilga yo‘l ochiladi. Masalan, ellipsni oladigan bo‘lsak, uning ikkita fokusi bor. Bir fokusidan nur chiqarsangiz qayerga borsa ham akslanib ikkinchi fokusiga qaytib keladi. Bu hodisa bugungi kunda lazerli terapiyada ham keng qo‘llanilyapti. Onkologik operatsiyalarda shu usuldan foydalanib, aynan kasallangan hujayrani yo‘qotish uchun nur chiqadigan joyi birinchi fokusda, hujayra ikkinchi fokusda tursa, nur qayerga yo‘naltirilsayam kasal hujayraga boradi.

– Siz Butunjahon Fanlar akademiyasi a’zosisiz. Yurtimizdagi ilm-fan taraqqiyotini dunyo ilm-faniga qiyoslaganda kamchilik va yutuqlar nimalarda ko‘rinadi? Ularning tajribalaridan nimalarni o‘rgansak bo‘ladi?

– Matematika – dunyoviy fan. Bir joydagi tadqiqot, ixtirolar boshqa joyda ham qilinayotgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun butun dunyodagi matematiklar bilan aloqada bo‘lib turamiz. Dunyoning qirqdan ortiq mamlakatida bo‘lganman. Hamma joyning o‘z afzalligi, yutuqlari bor. Masalan, noassotsiativ algebra yo‘nalishida bizning institutimiz dunyoda tan olingan markaz hisoblanadi. Hatto AQShning Milliy ilmiy fondi (National Science Foundation) pandemiyagacha har yili o‘z talabalari uchun tanlov e’lon qilar, ikki yarim oy davomida institutimizda ilmiy ish qilib, ma’ruzalar tinglashi uchun har bir talabaga 3 ming dollardan pul to‘lab, o‘n nafar talabani bu yerga yuborardi.

Institutimiz algebra va yana bir qancha yo‘nalishlar bo‘yicha ham dunyoda tan olingan obro‘li markazlardan biridir. Har bir yo‘nalishning ana shunday markazlari bor. Qayerdadir yangi yo‘nalish rivojlanayotgan bo‘lsa, biz ham xodimlarimizni o‘sha yoqqa yuboramiz yoki ularni taklif qilamiz. Matematiklar orasida axborot almashish keng yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, internet rivojlanib, seminarlarimiz ham xalqaro miqyosda onlayn o‘tadigan bo‘ldi. Hozir xorijga bormasdan turib ham hamkorlik qilish mumkin.

– PhD va fan doktorlarininig soni ko‘payayotgani, ilmiy ishlarning ko‘chirmakashlik yo‘li bilan himoya qilinayotgani haqida ko‘p gapirilmoqda. Nahotki aniq fanlarda ham antiplagiat dasturlar bularni aniqlay olmasa?

– Biz uchun juda og‘ir muammoni ko‘tardingiz. Prezidentimiz olimlarga ko‘plab shart-sharoitlar yaratib berdi. Ularning maoshi oshirildi, ilmiy darajasi borlarga ustama haqi to‘lanadigan bo‘ldi. Bir olim sifatida aytamanki, bu imtiyozlar ilm yo‘lidagilar uchun ulkan imkoniyat. Ammo bu ishonch suiiste’mol qilinib, ko‘p sohalarda qalbakilashtirish boshlandi, soxta fan doktorlari ko‘payib ketdi. Nafaqat ko‘paydi, balki qing‘ir yo‘llar bilan mansabga ko‘tarilgan ba’zi rahbarlar boshqalargayam yo‘l ochib beryapti. Masalan, bir kishi soxta doktor bo‘lib, yo‘l-yo‘riqlarni bilib olsa, keyin “shogirdlari”ga ham o‘rgatadi. Chunki qancha ko‘p fan nomzodi, fan doktorlarini tayyorlasa, shuncha obro‘si, moyanasi oshadi. Bir oycha avval “Jadid” gazetasida akademik Abdulla A’zamovning “Qutqarish qonuni” degan maqolasi e’lon qilingan edi. Matematiklarimiz ilm-fandagi qallobliklarni ko‘rib, bu masalaga murosasiz munosabat bildirishyapti. Abdulla akaning maqolasida ko‘rinishi xorijiy nufuzli jurnalga o‘xshaydigan nashrlar ham tanqid qilingan edi. Ularning ichini ochib o‘qisangiz, tahrir hay’ati a’zolari ham o‘zimizniki, tizimni qalbakilashtirib olishgan. Yarim yildan keyin jurnalning soxtaligi oydinlashib, yo‘q bo‘lib ketadi. Ammo ungacha qalloblar mo‘may daromad ishlab, boz ustiga ilm daryosini loyqalatishga ulgurishadi.

– Baribir aniq fanlarga asoslangan tadqiqotlarda “o‘g‘rilik”ni fosh etish osonroq bo‘lsa kerak. Chunki bu sohada raqamlar “gapiradi”. Shunday emasmi?

– Ha, afsuski, pedagogika kabi ijtimoiy sohalarda ko‘chirmakashlik avjiga chiqqan. Aynan pedagogikada to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashtirilgan ishlarga ko‘p duch kelganmiz. OAKda antiplagiat dasturi bor. Dasturning ishlash uslubi ilmiy ishni ochiq bazalar bilan tekshiradi. Dissertatsiyalar bu bazada yo‘q. Uni to‘g‘ridan to‘g‘ri ololmaysiz. Biz dissertatsiyalarni sotib olib solishtirdik. O‘shanda so‘zma-so‘z tarjima qilingani ko‘rinib qoldi. Pedagogika yo‘nalishida juda ko‘p ilmiy kengashlar ochilgan. Ishni ularga jo‘natsak ham, baribir, “Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi”, deganlaridek, ovoza qilishmadi.

Gaplarim ko‘pchilikka yoqmasligi mumkin. Biroq bu fakt, haqiqat. Men faqat matematika sohasi uchun emas, O‘zbekistondagi barcha fan tarmoqlari uchun jon kuydirib aytyapman. Respublikamizdagi turli fan jamiyatlari raislari to‘planganda bir necha bor: “Hamma o‘z fanini o‘zi himoya qilishi kerak”, dedim. Biz fanimizda bunga yo‘l qo‘ymaymiz. Gapingizda jon bor, matematikada ko‘chirmakashlikni xaspo‘shlash qiyin, darrov misi chiqadi. Vaholanki, Yevropa, Xitoy kabi davlatlarda pedagogika fani nomzodlari, doktorlari yo‘q. Chunki pedagogika ta’lim rivojlangan mamlakatlarda fan hisoblanmaydi. Bu – mahorat. Shunaqa kulgili “ilmiy ish”larni ham ko‘rdikki, matematikani o‘qitish metodikasi bo‘yicha dissertatsiya yozgan kishining o‘zi matematikani bilmasligi ma’lum bo‘lib qoldi.

– Mental arifmetika bolaning fanlarni o‘zlashtirishi, fikrlashi, ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi haqida aytiladi. Ta’lim tizimimizda mental arifmetikani joriy qilish qanchalik samarali deb o‘ylaysiz?

– Mental arifmetika bu – matematika emas, shunchaki tez hisob-kitob qilish usuli. Televizorda ba’zi bolalarning sonlarni tez qo‘shib-ayirayotganini ko‘ramiz. Bu ham inson miyasining imkoniyatlaridan biri. Xuddi kompyuterda tez hisoblaganday gap. Bunda asosan algoritmning elementar bir usuli o‘rgatiladi. Biroq bu o‘quvchining matematikani yaxshi bilishini ko‘rsatmaydi. Ular teoremalarni yaxshi tushunmaydi. Mantiqiy masalani yechishda ham mental arifmetikani qo‘llab bo‘lmaydi. Miyani charxlash uchun biroz shug‘ullanib ko‘rilsa ziyoni yo‘q. O‘ylashimcha, hammani mental arifmetikaga jalb qilish maqsadga muvofiq emas.

– Iste’dodli yozuvchimiz Abduqayum Yo‘ldoshning “Puankare” qissasida matematik olimning mashaqqatli, ziddiyatlarga to‘la hayot yo‘li tasvirlangan. Bugungi kunda olimlar oldida ilm uchun qanday to‘siq va muammolar bor?

– Bu matematiklar tarixidagi qiziq voqea. Puankare muammosi matematikaning klassik masalalaridan biri. U ikki asr oldin Jyul Anri Puankare tomonidan qo‘yilgan muammo hisoblanadi. Ko‘p olimlar ushbu gipoteza ustida ishlagan. Hozirda Sankt-Peterburg shahrida yashagan matematik olim Grigoriy Perelman butun umrini shunga bag‘ishlab, masalani hal qilgan. Ammo uning topilmasini boshqa yurtlik bir nechta matematiklar o‘z nomidan e’lon qilishgan. O‘shanda bu katta shov-shuv bo‘lib ketgandi. Keyin xalqaro matematika jamiyati muammoga aralashib, Perelmanning muallif ekanini tasdiqlagan. Perelman ilmiy jamoatchilikdan qattiq xafa bo‘lgan va matematika sohasidagi eng oliy mukofot “Filds” medalini berish uchun chaqirishganida ham bormagan. Medalning 1 million dollarlik mukofotini ham olishdan bosh tortgan. Hatto Xalqaro Matematika Jamiyati prezidenti kelib iltimos qilganida ham pulni olmagan. Holbuki, o‘zi keksa onasi bilan tor-tang kvartirada muhtojlikda, g‘arib ahvolda kun kechirgan. Shu tariqa Puankare masalasi insoniylik, aniqrog‘i, halollik muammosi bilan baqamti turib qoldi.

– Shavkat Abdullayevich, sirasini aytganda, ilm ahliga hamma zamonlarda ham oson bo‘lmagan...

– To‘g‘ri. Mustaqillikning ilk yillarida ham olimlarimiz hayotida turli qiyinchiliklar bo‘ldi. Faqat matematiklar emas, barcha olimlar murakkab pallalarni yashab o‘tishdi. Fanlar akademiyasi yopilish arafasida edi. Bizning institutimiz ham Akademiya tarkibidan chiqarilib, Milliy universitet qoshiga o‘tkazildi. Fizika, Yadro fizikasi institutlari va yana qanchalab gumanitar fan institutlari yopilib ketdi. Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylanishlari bilan barcha akademiklarni yig‘ib, ilm-fanni tiklash uchun nima qilishimiz kerak, degan masalani o‘rtaga tashladi. Birinchi Farmoni bilan Akademiya qaddini rostladi. Matematika sohasiga doir ikkita qaror qabul qilindi. Viloyatlarda institutimizning bo‘limlari ochildi. Bundan ko‘zlangan maqsad ta’lim va fanni ko‘proq bir-biriga muvofiqlashtirish edi. Hozir olimlarimiz uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Uy-joy, avtoulov, mablag‘ va ta’minot masalasida qator imtiyozlar berildi. Bizdan yagona talab – ana shu e’tiborni suiiste’mol qilmaslik, ishonchni oqlab, ilmni sidqidildan rivojlantirish.

– Bugungi ta’lim tizimidagi muammolarning ildizi qayerda?

– Ta’lim hayotimizning eng muhim sohasidir. Afsuski, hozir ta’lim sifati yuqori emas. Uni birgina xato bilan buzish oson, lekin tuzatish uchun o‘n, yigirma yillab fursat yo‘qotamiz. Bilim berishda birinchi navbatda o‘qituvchi, keyin darsliklar masalasi muhim. Institutimiz Prezident qarori bilan matematika darsliklariga mutasaddi qilingan. Hozir barcha – maktabdan tortib, oliy ta’limgacha darsliklar shu yerda ekspertizadan o‘tishi kerak. Afsuski, ba’zi sifatsiz darslik va qo‘llanmalar bizning institutimizni chetlab o‘tmoqda.

Muhim masalalardan yana biri pedagogika universitetlarida tayyorlanayotgan kadrlar, ularning bilim va salohiyati, o‘qituvchilik mahorati darajasi bilan bog‘liq. Ular asosiy e’tiborini PhD va fan doktorlari tayyorlashga qaratgan. Lekin ularning birlamchi vazifasi maktab o‘qituvchisini tarbiyalab yetishtirishdan iborat bo‘lishi kerak. Yaqinda butun dunyo miqyosida ta’lim sifatini tekshiradigan “PISA” reytingi o‘tkazildi. Unda O‘zbekiston eng quyi o‘rinlardan birini oldi. Ya’ni bu bizda maktab ta’limining sifati yaxshi emasligini ko‘rsatadi. Balki, birinchi marta testda qatnashilayotgani, o‘quvchilar ko‘nikmaga ega bo‘lmagani uchun ham past ball olingan bo‘lishi mumkin. Ammo ayrim maktablardagi ta’lim darajasi pastligi hech birimizga sir emas. Vaqt boy berilgach, na ta’limni, na saviyani ko‘tarib bo‘ladi.

Jadid bobolarimiz jami islohotning avvali maktabda, pedagogikada deb bilishgan. Yangi Toshkent shahriga tamal toshi qo‘yish marosimida Prezidentimiz “Bu yerda pedagogika universitetining kampusini quramiz”, deb bejiz ta’kidlamadi. Hozir universitetning fakultetlari poytaxtning turli hududlarida joylashgan. Bu, albatta, ta’lim sifatiga salbiy ta’sir qiladi. Yangi Toshkentda esa 20 ming talabaga mo‘ljallangan kampus bo‘ladi. Umid qilamizki, fan va ta’limga berilayotgan bu qadar yuksak e’tibor ziyolilarimiz tomonidan qadrlanib, amaliy natijalar bilan munosib javob qaytariladi.

– Biz ham millat nomini dunyoga taratgan ulug‘ matematik allomalarimiz an’anasi sizlarning timsolingizda davom etadi deb ishonamiz. Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat!

Muyassar IBROHIMOVA suhbatlashdi.



XIRA TORTMAGAN UFQ

Yaponiyada bor-yo‘g‘i ikki soat bo‘lib qaytgan kishi safar taassurotlarini kamida ikki yil tinimsiz gapirishi mumkin ekan. Bu mamlakatda ikki oy bo‘lgan odamning hikoyalari ikki haftaga cho‘ziladi. Kunchiqar yurtda ikki yil yashagan, mamlakatni u boshidan bu boshigacha kezib chiqqan kishining hikoyalari esa ikki soatga ham yetmaydi, deyishadi. Chunki u gapni nimadan, qaysi mo‘jizadan boshlashni bilmay qiynalib ketadi.

Ustoz Said Ahmad haqida xotira yozmoqchi bo‘lgan kishi, adib bilan hech bo‘lmasa bir marta suhbatlashgan yoki biror sayohatda tugun-pugun ko‘tarishga yordamlashvorgan bo‘lsa, ikki yil emas, umrining oxirigacha bu to‘g‘rida do‘st-qadrdonlariga qo‘shib-chatib gapirib yurishi aniq. Buning aslo qiyin joyi yo‘q. Ustoz bilan Buxoro tomonlarga yoki vodiy viloyatlariga sayohat qilgan, Qamchiq, Taxtiqoracha dovonlarida tasodifan uchrashib qolgan kishining taassurotlari oradan yillar o‘tsa ham aslo tugamaydi, aksincha, to‘lib-toshib, shishib-semirib boradi. Davrimizning hassos yozuvchisi Said Ahmadni yaqindan bilgan, bu ulug‘ inson bilan yonma-yon yashagan, hayot, ijod mashaqqatlarini birga tortgan, Do‘rmon bog‘ida ustoz o‘z qo‘llari bilan damlagan “yarim kilolik, yeyilgancha yeyilib, ortgani mahallaga xayriya sifatida tarqatiladigan uch kishilik palovxonto‘ra”ga necha bor og‘zi tegganlarning esa xotira yozishi ancha mushkul.



Ustoz bilan ko‘p bor muloqot qilganman. Betakror, o‘rama-burama lutflarini o‘zlaridan eshitish menga ham nasib etgan. Obuna to‘g‘risida hangomalarimga ko‘z tashlab, “Mana shu olabuqalik bolada bir gap bor-da”, derdilar. “O‘zbekiston madaniyati” gazetasi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” nomi bilan chiqa boshlaganida, Said Ahmad domla yeng himarib, “Shum bola”ning choyxonasida “asartaroshlik” qilganlar. Juda ko‘p asarlar qiyomiga yetkazib taroshlangan. Keyinchalik bu ishni biz – tahririyatning yangi xodimlari davom ettirdik. Domlaning maslahatlari, ba’zan ilmoqli, ammo samimiy yo‘l-yo‘riqlari bilan choyxona gavjum bo‘ldi. Qanchadan qancha yangi mavzular shu yerda tug‘ilib, shu yerda yo‘rgaklandi. Qaynab turgan samovarning tutuni domla bir-biriga ulab chekayotgan tamaki tutuniga qo‘shilib ko‘kka o‘rladi. Qanchadan qancha havaskor hajvchilarning kalta-kulta qalamlari shu yerda charxlandi. Qanchalari ustozdan ijodda emas, boshqa kasblarda omadlari kelishiga duo olib ketishdi. Shunday bo‘lsa-da, Said Ahmad domlani yaqindan bilaman, xotira yoza olaman deb baralla aytolmayman. Domlaning murakkab hayot yo‘li, taqdirning adolatsiz zarbalari haqida fikr yuritish oson emas. Shu bois, ustoz bilan bog‘liq ba’zi xotiralarni eslash bilangina qanoatlanaman.

Gapni “Ufq”dan boshlasam bo‘ladi. Bu asardan olgan taassurotlarim hali-hanuz yodimda. Uni takror-takror o‘qib chiqqanman. Har gal, ota o‘z farzandiga o‘q uzishi sahifasiga kelganimda dunyo ko‘zimga qorong‘i ko‘rinib ketgan. Bu asar kino tiliga ko‘chib, ota rolini Hikmat Latipov ijro etganida va u urushda vafot etgan, ammo kutilmaganda tirik qaytib kelgan o‘g‘lining savoliga “Amalladik, bolam...”, deb javob qaytarganida, iste’dodli aktyorning yer yorilsa yerga kirgudek mulzam ko‘zlariga tikilib, urush nima ekanini birinchi marta anglagan bo‘lsam, ajab emas.


Keyinroq ustozning hajviyalarini o‘qishga tutindim. Havaskor bir qalamkash sifatida ulardan ko‘p narsalarni o‘rgandim. Said Ahmad hajviyalarida birinchi jumla juda katta ahamiyatga ega. Shu muxtasar jumla o‘quvchini o‘ziga butunlay qaratib oladi. “Nurmatjon magazindan aroq olganida, “uyga borib, yonboshlab maydalayman”, deb o‘ylagan edi. Lekin sumkasidagi shisha har gal oyog‘iga tegganida eti seskanib, og‘zining so‘lagi oqaverdi...”. Bu – “Bir latifa aytaymi?” hajviyasining boshlanishi. “Tovuq tilini biladigan odam”da o‘qiymiz: “Boqqaningga yarasha tovuq o‘lgur kunda tug‘sa-da. Don cho‘qishiga qaraganda, kuniga ikkitadan tuxum qiladiganga o‘xshaydi. Qaqolashi dunyoni buzadi...”. “Mushtipar”da bundan ham jonli “manzara”ga duch kelamiz: “U ichkuyov edi. Xotini ishga ketganda idish-tovoqni yuvib, bolani kiyintirar, kiyimlariga dazmol bosib, hamma yoqni orasta qilib qo‘yardi...”. “Xotima”da ham shunday: “Yomon gapning qanoti bo‘ladi. Pir etib uchadi-yu, tomma-tom, devorma-devor oshib, elning qulog‘idan kirib, og‘zidan chiqadi...”. “Hindcha qo‘shiq”ning avvali ustoz Abdulla Qahhorni eslatadi (“Shunday qilib, Ahmad polvon so‘yiladigan bo‘ldi...”): “Qosimjon mashinani garajga kiritib, darvozaning uch joyidan qulflab, kalit o‘ynab kelarkan, uchinchi yo‘lak oldida bolalarning chiroyli bir itni silashayotganini ko‘rdi...”

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Ustozning ixcham, bir nafasda o‘qiladigan hajviyalarida jiddiy bir asarga loyiq ijtimoiy yuk bo‘ladi. Ba’zan tashbeh-u qiyos, badiiy bo‘rttirish me’yoridan oshib, lof darajasiga yetib qolganini sezsangiz ham, asarning tili sizni asalday tortib ketaveradi, e’tiroz bildirmay o‘qishda davom etasiz.

Bundan rosa ellik yil avval “Mushtum” jurnalida ustozning mitti bir hajviyasi e’lon qilingan. Mazmuni: katta bir rahbar savdo idorasi omborxonasi mudiriga qo‘ng‘iroq qilib, “Birozdan keyin shofyor yangangizni olib boradi, omborxonadan ul-bul tanlaydi”, deydi. Katta rahbarning topshirig‘idan xursand bo‘lgan mudir omborxona eshigini ochib, yangani kuta boshlaydi. Ko‘p o‘tmay yanga keladi. Omborxonadagi asl mollarni tanlashga tushadi. Shu payt rahbar qo‘ng‘iroq qilib, mudirga: “Uyda ish chiqib qolibdi, yangangiz ertaga boradi”, deydi. Mudirning kapalagi uchib, omborda mol tanlayotgan xotinni haydab soladi. “E, xayriyat-e, bir palakatdan qutuldim”, deb turganida yana qo‘ng‘iroq bo‘ladi: “Yangangiz yo‘lga chiqqan ekanlar, yaxshi kutib oldinglarmi?..”

O‘tgan asrning to‘qsoninchi yillari boshida adabiyot gazetasi sahifalarida “Ov” sarlavhali sarguzasht hashar-qissa e’lon qilganmiz. Muharrir sifatida tashabbus ko‘rsatib, qissaning birinchi bobini o‘zim yozdim va navbatni bir-ikki ijodkordan keyin Said Ahmadga berdik.

O‘sha paytda desangiz, Yozuvchilar uyushmasi “Yozuvchilar uyushmasi” va “Adiblar ittifoqi”ga bo‘linib, ular faoliyatini yoritish tahririyat uchun jiddiy muammoga aylangandi. Hashar-qissaning navbatdagi bobini yozishga kirishgan Said Ahmad bir o‘q bilan ikki quyonni shunaqa urdiki, ofarin demaslikning iloji



yo‘q edi. Mana, o‘sha qissaning ustoz yozgan bobidan parcha: “Oralaridan qil o‘tmaydigan ovchilar o‘rtasidan qora mushuk o‘tdi. Bir-biriga raqib, bir-biriga yov. Biri ov qilgan joyga boshqasi bormaydi. Biri mo‘ljalga olgan quyonni boshqasi hurkitadi. Oralarida qandaydir ko‘zga ko‘rinmaydigan taranglik anchadan beri bor edi. Bu taranglik tortilib-tortilib, po‘lat zanjirni ham uzish darajasiga yetdi. Oxiri bu zanjir Javlon ovchining yubileyi kuni uzildi. Ota-bobolaridan boshlangan ahillik bir kundayoq barbod bo‘ldi. Zanjirning bir tomoni Ovchilar uyushmasi bo‘lib, Mullaqandning do‘konida qoldi, bir uchi Merganlar ittifoqi bo‘lib, o‘ziga makon qidirib ketdi. Ularni birlashtirish uchun kimlar o‘rtaga tushmadi, deysiz?! Tog‘dan ko‘pni ko‘rgan ovchilar tushib, ikki tomonni murosayi madoraga keltirmoqchi bo‘lishdi. Cho‘ldan tajribali merganlar kelib, “bxay-bxay” bo‘linglar deyishdi. Bo‘lmadi...”

Qissadan hissa shuki, asli toshkentlik, keksaygan chog‘ida “dom”da tura olmay, Ohangarondagi qarindoshlarinikiga ko‘chib ketgan mashhur To‘xli mergan bu noxush xabarni eshitib, “Jiguli”ning orqasiga yonboshlab, ikki yoniga ikkita ovchi burgutini olib, Toshkentga, Mahmud mo‘ylovning lag‘monxonasiga keladi. Otaxonning Toshkentga kelayotganini eshitgan har ikki tarafdan o‘n beshtadan vakil shogirdlar mo‘ylovning lag‘monxonasiga to‘planishib, bir-birlariga orqa qilib o‘tirishadi. Otaxon ularga qarab shunday deydi: “Ahmoqlar! Bilib qo‘yinglar, duoyibad qilsam, u dunyo-bu dunyo ovlaring o‘ng kelmaydi. Qani, o‘rinlaringdan turinglar. Bundan buyon sen ovchi, men mergan, degan gap yo‘q. Ikkoving ham birsan. Tamom, Allohu akbar...”

Qissaning bu bobi o‘shanda nechog‘li katta ahamiyat kasb etganini bu voqelarga guvoh ijodkorlar yaxshi tasavvur qilishadi.

Ustoz bilan umrlarining so‘nggi kunlarigacha ijodiy hamkorlik qilib keldik. Biror nima qoralagan bo‘lsalar, darhol qo‘ng‘iroq qilib, “Zo‘r narsa chiqdi, gazetaning tiraji oshishini xohlasalaring, tezroq olib ketinglar, boshqalar ilib ketmasin yana”, deb hazil-huzul qilardi. Domlaning “To‘zg‘ib ketgan xayollar” sarlavhali hikoyalari qo‘lyozmasini dala-bog‘lariga borib olib kelganmiz. Hikoya eski yozuv mashinkasida, ishlatilaverib rangi ketib qolgan lentada ko‘chirilgan, ustma-ust tahrir qilingan, o‘chirilgan, tiklangan, ba’zi qo‘shimchalar, jumla va hatto so‘zlar alohida qog‘ozga yozilib, qaychida qiyilib, yelim bilan matnga kiritilgan, chetiga yopishtirilgan, sahifalarning raqamlari bir necha bor almashtirilgan. Ustozga: “Durustgina hikoyani qaychida burdalab, qayta yopishtirib chiqibsiz”, desam, “E, muharrir bola, sarlavhani o‘qimadingmi, “To‘zg‘ib ketgan xayollar” deb qo‘yibman-ku”, deganlari esimda.

Shu qo‘lyozmani avaylab saqlab qo‘yibman.

Bir gal Xayriddin Sultonov ikkimiz domladan xabar olish uchun Do‘rmonga bordik. Ustoz ichki kiyimda oshxonalarida kuymanib yurgan ekanlar. Salom-alikdan so‘ng yaxshigina suhbat bo‘ldi. Biror narsa kerak bo‘lib qolsa, domla nabiralari Sharofjonga aytib, yerto‘ladan oldiradilar. U yerda g‘aroyib moldunyo yig‘ilgan. “Urush yillari tarqatilgan paxta yog‘i, makaron, kir sovungacha bor-a”, deb hazil-huzul qilamiz. Gap orasida shuncha “muhim” narsalarning taqdiri xususida so‘z ketdi. “Tashvish qilmang, birortasi talon-toroj qilinmaydi, eksponat sifatida saqlanadi, hammasini uy-muzeyga qo‘yamiz”, dedik.

– Muzey qayerda bo‘ladi? – so‘radi ustoz.

– Qayerda bo‘lardi, shu yerda-da, – dedik shaxdam.

– Yo‘q, bo‘lmaydi, odamlar shahardan Do‘rmonga kelarmidi? – dedi ustoz bosh chayqab.

– Keladi. Muxlislar Tolstoy boboni eslab, Yasnaya Polyanaga kelishadi-ku, – dedik. Rozi bo‘lganday bo‘ldilar. Ammo bir zum o‘tmay aynib qoldilar.

– Xo‘p, Do‘rmonda bo‘lsin ham deylik, unda muzeyga kim direktor bo‘ladi?

– Mana, bir devor yon qo‘shningiz Barot Boyqobilov bor, bu ishga juda mos tushadi, – dedik.

Ustoz battar aynib, “Yaxshisi, muzeyga o‘zim bosh bo‘lganim ma’qul. Mendan durust nomzodni topa olmaysanlar”, dedilar...

Bir yili O‘zbekiston xalq shoiri Normurod Narzullayev ikkimizni poytaxt bolalar bog‘chalari tarbiyachilarining yig‘ilishiga taklif qilishdi. Normurod aka yayrab she’r o‘qidi. Men “Yosh gvardiya” (hozirgi “Yangi asr avlodi”) nashriyotida chop etilayotgan bolalarbop kitoblarni targ‘ib qildim. Uchrashuv yakunida bir ayol yonimizga kelib, bizdan kutilmaganda Said Ahmad aka to‘g‘risida so‘rab qoldi. Bilganlarimizni aytdik. “Bir kishi og‘ir kasal, yurolmaydi, shu yozuvchi bilan uchrashmoqchi, iloji bo‘lsa tezroq”, dedi opa ko‘zlariga yosh olib.

Bemorning kimligini so‘radik. Opaning turmush o‘rtog‘i ekan. Bizni uyiga taklif qildi. Tushunarsiz bir vaziyat yuzaga keldi. Yo‘q deyolmadik.

Chilonzor. To‘rt qavatli uy. Xonalardan birida yoshi anchaga borib qolgan, kasallik alomatlari shundoqqina ko‘rinib turgan bir kishi bizni yotgan joyida, qiyin bo‘lsa-da, ozroq jilmayishga harakat qilgancha kutib oldi. Salom-alikdan so‘ng bemor o‘rnidan biroz qo‘zg‘olib, “Mana shu suratni Said Ahmad ishlagan, shu odamni bir ko‘rsam...”, dedi devorga osib qo‘yilgan erkak va ayol kishining suratiga ishora qilib. Avval ajablanib, keyin hayratlanib moybo‘yoqda ishlangan suratga qaradik. Bemor hikoyasini boshladi.

“Turmada nadziratel edim. Bir kuni yangi aristonlar keladi, joy hozirlansin”, degan topshiriq bo‘ldi. Ispiskaga qarasam, Xusanxodjayev S. degan o‘zbek yozuvchi bor ekan. Kelishdi. Joylashtirdik. Ammo so‘zlashishning iloji yo‘q. Hamma nadziratellar bir-birini kuzatib turadi. “O‘zbek o‘zbekni yoniga chaqirdi, bir nimalarni gaplashdi”, degan gap chiqsa, baloga qolaman. Vaqtini topib, bir kuni Said Ahmadni besh kishi bilan birga yonimga chaqirdim. Bitta-bitta gaplashdim. Hammasini so‘rab-surishtirdim, ko‘p narsani bilib oldim. Suratkashlik bilan ham shug‘ullangan ekan, shunga yarasha ish berdik. Yonimda ota-onamning suratlari bor edi, ularni mana shunday chizib berdi.

Bu orada menga otpuska berishdi. Toshkentga keldim. Uch-to‘rt kundan keyin kechroq, qorong‘i tusha boshlagan paytda Said Ahmad bergan manzilga borib, u yoq-bu yoqqa qarab, hech kim meni kuzatmayotganiga ishonch hosil qilgach, darvozani asta taqillatdim. Turmush o‘rtog‘iga o‘zimni tanitdim. Bechora ayol, avvaliga o‘zini yo‘qotib, ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmay, rangi oqargancha bir zum xiyol ochilgan darvozaga suyangancha turib qoldi. “Besh kundan keyin qaytaman. Sahar payti kelaman”, dedim-da, ortimga qaytdim. Opa issiq kiyimli tugunni juda katta qilib yuborgan ekan, o‘zimning ham yuklarim ko‘p deb, yarmini oldim. Omonat qo‘liga yetgach, Said Ahmad xursand bo‘ldi. U kishini bir ko‘rsam, armonim qolmasdi. Iltimos...”

Bir hisobda yaxshi xabar. Bir vaqtlar o‘zlari ishlagan suratni ko‘radilar. Ammo bu gapni ustozga qanday aytamiz, o‘lim sharpasi kezib yurgan bemor yoniga kelishga qanday ko‘ndiramiz? Boshimiz qotdi. Kun, hafta avvalgidan ko‘ra tezroq o‘ta boshladi. Yo‘q, aytmasak bo‘lmaydi.

Do‘rmonda, o‘sha hammaga tanish hovlining ayvonchasida uch kishi o‘tirgan edik, payt poylab turib, asta aytdim. Bizni kuldirib turgan ustoz bir zum to‘xtab qoldi. Ko‘zlari kattalashdi. O‘rinlaridan turib, “E, nima deyapsan san bola, surat deysanmi, qanaqa surat, qanaqa nadziratel, ismi nima ekan? Nima?.. Ha, e, qo‘y uni. Hammasi yolg‘on, bo‘lmagan gap. Hech qanaqa surat-puratni bilmayman. Qani, yeb-ichdilaringmi, bo‘ldi, turlaring, omin...” devordilar.

Do‘rmondan og‘ir qaytdik. Tushunarsiz holat yuz bergani yo‘q, aslida. U mudhish kunlarni, sindirilgan taqdirlarni, umri erta xazon bo‘lgan qanchadan qancha juvonmarglarni eslash, hatto xayolotda jonlantirish ham o‘ta og‘irligini bu kunlarni ko‘rmaganlar, bilmaganlar qanday tushunsin?!

Bir gal ustozdan kutilmaganda qisqagina maktub olganmiz. Yaxshi kayfiyatda boshlangan xatning oxirgi satrlari, ayniqsa, bitta so‘zi o‘ta zardali edi. Tahririyatda qisqa vaqt shartnoma asosida ishlagan bir yozuvchimiz ustozning yangi hikoyasini xuddi havaskor yozuvchining mashqini tuzatganday tahrir qilibdi. “Jarrohlik tig‘i” tegmagan birorta jumla qolmabdi. Ustoz qattiq ranjib, “Anovi xodimning ...qo‘li tegadigan bo‘lsa, boshqa hikoya yubormayman”, debdilar. Oraga tushgan sovuqchilikni bartaraf qilish uchun ikki-uch hafta Do‘rmonga navbatdan tashqari boribkelib turishimizga to‘g‘ri keldi. Ustoz so‘zni, so‘z san’ati bo‘lgan adabiyotni aziz tutardi, har qanday asarga baho berishda avvalo yozuvchining tarjimayi holini, kayfiyatini va qo‘liga qalam tutqazgan majburiyat nima ekanini yaxshi anglash kerak, degan qat’iy talabi bor edi. O‘zi ham, albatta, shunchaki ermak uchun biror satr yozgan emas. O‘ylashimizcha, Said Ahmadning ana shu xislati ham bugungi ijodkorlarimizga ibrat bo‘la oladigan jihatdir...

Xotiralar ko‘p, yillar ularni ayovsiz sinovdan o‘tkazadi, elaklaydi, ammo Said Ahmad kabi ulug‘ ustozlar ijodining ma’naviy ufqi aslo xira tortmaydi.

Ahmadjon MELIBOYEV

OZARBAYJON MADANIYATI KUNLARI

Abadiy va azaliy do‘stlik

Mumtoz turkiy adabiyot tarixiga nazar tashlasak, Alisher Navoiy ijodining ozarbayjon adabiyotiga, Fuzuliy ijodining o‘zbek adabiyotiga ta’siri kattaligini ko‘ramiz. Fuzuliy devoni XVIII-XIX asrlardayoq xalqimiz orasida keng tarqalgan va bir necha bor o‘zbek tilida nashr qilingan. Shoirning o‘lmas g‘azallari kuyga solinib, asrlar davomida xonandalar tomonidan kuylab kelinmoqda.

Fuzuliy tavalludining 530 yilligi munosabati bilan yurtimizda bo‘lib o‘tgan Ozarbayjon madaniyati kunlari doirasida tashkil etilgan adabiy-ma’rifiy tadbirlar ikki qardosh xalq o‘rtasidagi azaliy do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.


Yozuvchilar uyushmasida bo‘lib o‘tgan tadbirda Ozarbayjon va O‘zbekiston madaniyati sohasi vakillari, shoir va yozuvchilar, ozar va o‘zbek mumtoz adabiyoti tadqiqotchilari, adabiyot ixlosmandlari ishtirok etdi. Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, Ozarbayjon Respublikasi madaniyat vaziri Adil Karimli va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid ikki tomonlama adabiy aloqalar rivoji, amalga oshirilayotgan ko‘lamli ishlar hamda madaniy hamkorliklar haqida gapirdi.

Shundan so‘ng Fuzuliyning ikki jildlik “Kulliyot”i taqdimoti o‘tkazildi. Ushbu kitob O‘zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi tomonidan chop etilgan. Unga Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi akademigi Isa Habibeyli va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Shuhrat Sirojiddinov ilmiy muharrirlik qilishgan. Karimulla Mammatzoda tomonidan nashrga tayyorlagan devondagi g‘azallarni taniqli tarjimon, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Xolid Rasul o‘zbek tiliga o‘girgan.

Taqdimot marosimi Fuzuliy va Navoiy ijodiga bag‘ishlangan ilmiy-ma’rifiy ma’ruzalarga ulandi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi Mirzo Kenjabek, Ozarbayjonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Nizomiy Ja’farov, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining xalqaro aloqalar va tarjima masalalari bo‘yicha kotibi Salim Babulla o‘g‘li Fuzuliy va Navoiy ijodining zamonaviy bosqichdagi yangi tadqiqotlar va ularning o‘ziga xos jihatlari xususida fikr yuritishdi. O‘zaro aloqalar rivojiga munosib hissa qo‘shgan olim, yozuvchi, shoirlar-u tarjimonlarning beqiyos xizmatlari e’tirof etildi.

Tadbir so‘ngida ozarbayjonlik san’at ustalari tomonidan Fuzuliy hayotidan hikoya qiluvchi sahna ko‘rinishlari namoyish qilindi. Shoir g‘azallari bilan aytiluvchi qo‘shiqlar yangradi.

Zikrilla MAMATOV



SUHBAT



**Feruza ABDUMAJIDOVA,
oliy toifali bolalar shifokori:**

Mehrning ham me’yori bor

– Feruza opa, bir suhbatimizda bolalar orasida yuqumli kasalliklar ko‘pligi, shifoxonalar bemorlar bilan to‘lib-toshgani haqida gapirgandingiz. Afsuski, sog‘liq muammosi bugun hech kimni chetlab o‘tmayapti. Bilamizki, yaqin o‘tmishda umrida shifokorga ishi tushmagan odamlar bo‘lgan. Bolalar ariqlardan suv ichib, non oqizib yegan. Hozir suvni qaynatib ichirsak ham, har qancha avaylasak ham, bolalar tez-tez kasal bo‘lyapti. Muammoning ildizi qayerda?

– Kasalliklar kelib chiqish xususiyatiga ko‘ra, asosan to‘rtta – nasliy, ekologik, stress va noto‘g‘ri ovqatlanish omiliga bog‘liq bo‘ladi. Dastlabki uch omil bor-yo‘g‘i 25 foizni, noto‘g‘ri ovqatlanish esa 75 foizni tashkil qiladi. Noto‘g‘ri ovqatlangan odam immuniteti dastlabki uch omilga qarshi kurashishi qiyin kechadi. Birinchi omil, ya’ni irsiyatga oid kasalliklar odatda o‘zimizga bog‘liq bo‘lmaydi, chunki ota-onani tanlay olmaymiz. Ekologiyaning ifloslangani ham inson organizmiga ta’sir qiladi. Yana, hayotda shunday vaziyatlar bo‘ladiki, stressdan qochishning imkoni yo‘q. Jamoat transportlarida odamlarning bir-biriga qo‘pol muomalasi, tirbandlik, uy-ro‘zg‘or, bola-chaqa muammolari, informatsiyaning haddan tashqari ko‘pligi – bular hammasi ruhiy zo‘riqishni keltirib chiqaradi. Bunday hodisalarni boshdan kechirish yoki kechirmaslik ham bizga bog‘liq emas. Demak, kasalliklarning oldini olish va unga qarshi kurashishda o‘zimizga bog‘liq yagona chora bu – to‘g‘ri ovqatlanishni yo‘lga qo‘yish.

“Umrida shifokorga bormagan odamlar”, deyapsiz. U vaqtlarda ekologiya toza bo‘lgan. Hozirgidek do‘konlarda jimjimador qadog‘i bilan ko‘zni o‘ynatgan chipsilar, kiriyeshkilar, sun’iy ozuqalar, fas-fudlar, hazm qilish organlarini ishdan chiqaruvchi uglevodga boy turli-tuman shirinliklar bo‘lmagan. Odamlar ko‘proq o‘z tomorqasida yetishtirilgan tabiiy yeguliklar bilan oziqlanishgan. Jismoniy mehnat qilishgan, doimiy harakatda bo‘lishgan. Tanada qon yaxshi aylanib, taom hazmi yaxshilangan. Hamma kasalliklarning ildizi yaxshi hazm bo‘lmagan taomga borib taqaladi. U ichaklarni ifloslantirib, organizmni zaiflashtiradi va infeksion, noinfeksion, hatto onkologik kasalliklarni yuzaga keltiradi.

– To‘g‘ri ovqatlanish uchun nimalarga amal qilish kerak?

– Avvalo, har narsada me’yor lozim. Hatto ota-onaning, bobo-buvining o‘z farzandiga, nabirasiga bo‘lgan mehrida ham. Ba’zan bolalarni yaxshi ko‘rganimiz tufayli o‘zimiz bilmasdan ularga yomonlik qilib qo‘yamiz. Bolalarga zararli bo‘yoqlar, kimyoviy moddalar, uglevodlar bilan boyitilgan, tayyor va yarimtayyor yeguliklar, ichimliklar sotib olib beramiz. Bu tuzoqqa sepilgan donday gap. Bolalar buning farqiga bormaydi, biz esa ularga chiroyli ko‘ringan narsani olib beraveramiz. Bunday ortiqcha, noo‘rin mehr bolaning ham sog‘lig‘i, ham tarbiyasi uchun zararlidir.

Keyingi paytlarda odamlar o‘zlari sezmagan holda reklama qurboniga aylanyapti. Sog‘liq uchun zararli mahsulotlar hatto telekanallarda targ‘ib qilinmoqda. Nahotki, ularni nazorat qiladigan biror tashkilot bo‘lmasa? Menimcha, maktablar va ular yaqinidagi do‘konlarda sotilayotgan mahsulotlarni ham nazoratga olish kerak. Spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, bolalar sog‘lig‘iga ziyon yetkazuvchi neki bor, maktab yaqinida sotish taqiqlansa, yaxshi bo‘lardi. Chunki tushlik uchun berilgan pulga bola nima olib yeyishni bilmaydi. Ota-onalar, o‘qituvchilar, shifokorlar bolaga nima yeb, nima yemaslik kerakligi haqida muntazam tushuncha berib borishlari, ularga to‘g‘ri ovqatlanishni o‘rgatib, ko‘nikma hosil qildirishlari lozim.

Tuz va shakarni bekorga oq zahar deyishmaydi. Ular me’yoridan ortiq iste’mol qilinsa, oshqozonosti bezini ishdan chiqaradi. Boshqa hazm qilish organlari faoliyati ham asta-sekin izdan chiqadi. Hazm qilish yomonlashib, moddalar almashinuvi buziladi. Immunitet pasayib, organizmning kasalliklarga qarshi kurashuvchanligi susayadi. Shakar va tuz, umuman, qayta ishlangan mahsulotlarni iloji boricha iste’mol qilmaslik lozim. Ilgari momolar bolalarni xursand qilish uchun cho‘ntagida mayiz, o‘rik, jiyda, xurmo, qurut kabi tabiiy mahsulotlarni olib yurishgan. Ana shunday usullardan foydalanish, ho‘l meva, sabzavotlar, tuxum, sutli mahsulotlar, no‘xat, mosh, loviya va boshqa dukkaklilarni ko‘proq iste’mol qilish lozim. Mol, qo‘y, tovuq go‘shti, baliq yangiligida pishirib yeyilsa, oqsil-u vitaminlarga boy bo‘ladi.

Kun davomida ko‘proq suyuqlik, ya’ni suv ichish organizmning tozalanishiga, moddalar almashinuvining yaxshilanishiga yordam beradi. Ertalab uyqudan turganda bir piyola suv ichiladi va yarim soatdan keyin nonushta qilinadi. Ovqatlangandan so‘ng yarim soat o‘tib, yana suv ichish boshlanadi, to keyingi ovqatlanishga yarim soat qolgunga qadar.



Faqat kechki ovqatdan keyin kamroq suyuqlik ichish kerak. O‘z vaqtida, me’yorida, shoshilmay, mayda chaynab ovqatlanish ham sog‘liq uchun juda muhim.

– Bugungi bolalar burungi tengdoshlaridek ko‘chada koptok tepib, quvlashmachoq o‘ynab emas, kompyuter, telefon o‘ynab katta bo‘lyapti. Ularni bu balodan qutqarish, foydali ishlar bilan band qilish niyatida darslar, to‘garaklar, harakat talab qilmaydigan intellektual mashg‘ulotlarga ko‘mib tashlayapmiz. Insoniyat o‘z yutug‘i deb hisoblayotgan texnik taraqqiyotning ham sog‘liqqa jiddiy zarari bo‘lmayaptimi?

– Zamondan orqada qolib ketmasligimiz uchun texnik taraqqiyot kerak, albatta. Ammo tarbiya birinchi o‘rinda. Tarbiya esa, eng avvalo, kun tartibini to‘g‘ri tuzishdan boshlanadi. Bolalar o‘z vaqtida ovqatlanishga, jismoniy mashqlarni ham, dars va mashg‘ulotlarni ham bir paytda bajarishga o‘rgatilsa, sog‘lom ulg‘ayadi. Sog‘ tanda esa sog‘lom aql bo‘ladi.

Sog‘lom bola tarbiyalashni istagan ota-ona ishni o‘zini tarbiyalashdan boshlashi lozim. Yonimga kelganlarning ko‘pchiligi bolasining sog‘lig‘i uchun qayg‘uradi-da, o‘ziga e’tibor bermaydi, talab qilinayotgan tartibga o‘zi amal qilmaydi. Ularga aytaman: “Samolyotda avariya holatida taqiladigan niqobni avval o‘zingiz taqib, keyin bolaga taqing”, deya ogohlantiriladi. Nega? Ota-ona omon qolsagina bolasini ham qutqaroladi. Demak, ota-ona sog‘lom turmush tarzini, avvalo, o‘z misolida to‘g‘ri yo‘lga qo‘ygan bo‘lishi kerak.

Bola sog‘lom bo‘lishi uchun ota-onalar, o‘qituvchilar, tarbiyachilar va shifokorlar birgalikda harakat qilishi zarur. Yurtboshimiz har kuni piyoda yurishga yoki xalq orasida turli sport musobaqalarini o‘tkazishga e’tibor qaratayotgani bejiz emas. Bu tadbirlar odamlar sog‘lig‘ini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu o‘rinda bir taklifim bor. Ilgari bolalar bog‘cha, maktablarga dars va mashg‘ulotlar boshlanishidan sal oldinroq borib, ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarar edi. Shu tartib yana yo‘lga qo‘yilsa, ayni muddao bo‘lardi.

– Bilasiz, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish amaliyoti joriy etilgan. Bu juda yaxshi, ammo keyingi vaqtlarda o‘quv dargohlaridagi emlash tadbirlaridan ota-onalar tashvishlanadigan bo‘lib qoldi. Ayniqsa, bolalarning doridan zaharlanish holatlari ro‘y berganidan so‘ng...

– Necha yillardan buyon amalga oshirib kelinayotgan emlash amaliyoti qanchadan-qancha bolalarni turli kasalliklardan asrab qolganini inkor etib bo‘lmaydi. Kimlarningdir mas’uliyatsizligi tufayli sodir bo‘lgan noxush voqeani deb emlashdan voz kechilmaydi, albatta. Ammo bolaning ahvolini hech kim uning ota-onasidan yaxshiroq bilmaydi. Ota-onalar hushyor turib tibbiyot xodimlariga yaqindan yordam berishlari kerak. Emlash jarayonida har bir bolaning sog‘lig‘idan kelib chiqib, individual yondashiladi. Emlashdan oldin bola tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi va keyin ham ahvoli nazorat qilinadi. Mabodo maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida bu tartibga amal qilinmasa, ota-ona talab qilishi yoki emlashga qarshilik ko‘rsatishi mumkin.

– So‘nggi savol: nima uchun shu kasbni tanlagansiz?

– Kasbimiz sharafli, shu bilan birga, mashaqqatli ham. Bolalar o‘zidan nima o‘tayotganini tushuntirib berolmaydi. Yoshi kattaroqlari nimalarnidir ifodalab bergan taqdirda ham hamma narsani chalkashtirib gapiradi. To‘g‘ri tashxis qo‘yish uchun bemorning ahvolidan kelib chiqib, muhim shikoyatlarini saralab, shunga diqqat qaratiladi. Shifokorda ichki tuyg‘u bo‘lsa, tashxis qo‘yishda adashmaydi. Ba’zan Xudo bergan iqtidorning o‘zi kamlik qiladi. Tinmay bilim olish, o‘z ustida ishlash va tajriba orttirish kerak bo‘ladi. Ayniqsa, biz shifokorlar boshqa soha vakillaridan ko‘proq o‘z ustimizda ishlashga majburmiz. Men talabalik paytimdayoq shifoxonalarga borib, hamshiralarga yordamchi bo‘lib tajriba orttirishga, institutda o‘tadigan amaliyot darslarida ham faol qatnashishga, qanday qilib bo‘lmasin, tibbiyot sohasida bilimlarimni mustahkamlashga harakat qilardim. Keyin ham eng tajribali shifokorlarga shogird tushib, pulmonologiya, loringologiya, somatika, ichki kasalliklar bo‘limlarida ishladim. Oilaviy poliklinikada tajriba orttirdim. Ayni paytda Toshkent shahar bolalar diagnostika-maslahat markazida faoliyat yurityapman. Turmush o‘rtog‘im ham bolalar shifokori, dotsent. Murakkab vaziyatlarda birgalikda izlanib, hamkorlik qilamiz, u kishi menga doim madadkor.

Bolalar shifokori bo‘lib ishlayotganimga 40 yil to‘ldi. Shu kasbni tanlaganimdan hech qachon afsuslanmaganman. Ozgina bo‘lsa ham kimningdir og‘irini yengil qilib, sog‘lom hayotga qaytarolgan bo‘lsam, shuning o‘zi katta baxt. Tuzalgan har bir bemorim menga yangi kuch bag‘ishlaydi.

**Oydin YO‘LDOSHEVA
suhbatlashdi.**

YANGI LUG‘AT

ATAMALAR SHARHI



FEYK – ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, ammo rost xabardek ko‘rsatilib, odamlarni ishontirishga qaratilgan soxta ma’lumot.



BATL – ijtimoiy tarmoqlarda tomonlar o‘rtasida o‘zaro bellashuv shaklida o‘tadigan musobaqani anglatadi. Ba’zi hollarda munozara, bahs va janjallarga sabab bo‘ladigan holatlar uchun ham ishlatiladi bu so‘z.



REPOST – o‘zganing ijtimoiy tarmoqdagi matnli xabari yoki video materialini shaxsiy sahifangizni kuzatuvchilar hamda do‘stlaringizga ko‘rsatish uchun o‘z sahifangizda e’lon qilib, postni baham ko‘rish.



KESHBEK – savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida xarid uchun mijoz tomonidan sarflangan mablag‘ning ma’lum qismini qaytarib berish.

Gazetxonlarimizda mazkur so‘zlarning o‘zbekcha muqobiliga taklif bo‘lsa, telegram orqali @jadidgamurojaat_bot *manziliga yuborishlarini so‘raymiz.*

MUNOSABAT

Buxoroyi sharifga munosib ma’rifat maskani

Ma’lumki, Buxoro shahri asrlar davomida nafaqat Turkistonda, balki butun islom Sharqida yorqin ilm mash’ali vazifasini o‘tab kelgan. So‘nggi asrlarda bu yolqin birmuncha pastlagandek ko‘rinsa-da, Buxoro madrasalari hamisha Turkistonning barcha bo‘lgalaridan tashqari Hindiston-u Eron, arab diyorlari, uzoq tatar dashtlaridan kelgan talabalar bilan to‘lib-toshgan edi. Garchi Turkiston siyosiy jihatdan uch davlatga bo‘lingan bo‘lsa-da, Buxoro o‘zining ilm-ma’rifat poytaxti sifatidagi mavqeyini aslo yo‘qotmadi...



Tarixchi olimlar yurtimizdagi jadidlik harakatini yuzaga keltirgan ichki omil sifatida Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan istilo qilinishi oqibatida mahalliy aholining rus ilm-fani va Yevropa madaniyati bilan tanishishi, Ismoil G‘aspralining musulmon maktablari uchun joriy etgan “usuli savtiya”ga asoslangan jadid (no‘g‘oy) maktablari hamda “Tarjimon” gazetasi orqali keng targ‘ibotini, tashqi omil sifatida esa Turkiyadagi tanzimot harakati, “Yosh turklar”, “Yosh afg‘onlar”, Eron inqiloblarining o‘lkamizga ta’siri natijasi deb ko‘rsatishadi.

Bizningcha, Turkistondagi jadidlik harakatining haqiqiy beshigi aynan Buxoro shahridir. Hali XVIII asrning oxiridayoq azaliy “Qubbayi islomi din ast” deb ta’riflangan Buxoro shahri madrasalari Islom olamining barcha mintaqalaridan kelgan talabalarni o‘z bag‘riga olgan edi. Qursaviy, Shahobiddin Marjoniy, Boysuniy kabi mutafakkirlar orqali bu ma’rifatchilik g‘oyalari islom Sharqidan tatar zaminlarigacha tarqalgan edi. Buxoroda boshlangan ma’rifat to‘lqini Xorazmda, Qo‘qonda aks sado berdi. Tariximiz zarvaraqlarini Ogahiy, Islomxo‘ja, Avaz O‘tar, Miriy Kattaqo‘rg‘oniy, Ahmad Donish, Sadri Ziyo, Ikromiddin O‘roq, Muqimiy, Fitrat, Is’hoqxon Ibrat, So‘fizoda kabi ko‘plab ma’rifatparvarlar bilan boyitib berdi.

Ismoilbek G‘aspralining jadidlik ta’limoti ham aynan Buxorodan ketgan to‘lqinning sayqallanib, yana boyigan holda yurtimizga qaytishi hisoblanadi. Keyinchalik Ismoil G‘asprali ta’sirida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Hoji Muin, Muhammadjon Xoliqiy, Abduvahhob Ibodiy, Ashurali Zohiriy kabi o‘nlab jadid taraqqiyparvarlari yetishib chiqdi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, Turkiston jadidlik harakati murakkab sharoitda mustahkam milliy zaminga asoslangan holda vujudga kelgan. Shuning uchun boshqa islomiy uyg‘onish harakatlariga qaraganda uning siyosiy g‘oyalari yashovchanroq, diniy asoslari puxta, iqtisodiy qarashlari ilmiy va hayotbaxsh, ijtimoiy asoslari umumbashariy, ma’naviy asoslari jozibaliroqdir.

Turkiston jadidlari – taraqqiyparvar, ammo dahriy emas, ular dindor, ammo mutaassib emas, ular milliyat tarafdori, ammo millatchi emas, ular boy, ammo nafsining quli emas, ular san’at, adabiyot, nafosat odamlari, ammo hirsining asiri emas! Jadidlar aholining eng faol qatlami – yoshlardan iborat edi. Ular dunyo ko‘rgan savdogar, saxiy boy, mudarris, talaba va xalqning ahvoliga befarq bo‘lmagan ijod ahlidan iborat milliy taraqqiyparvarlarimiz edi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan bugun ma’rifatparvar jadid bobolarimizning ibratli hayot yo‘li, boy ilmiy-ijodiy merosini chuqur o‘rganish va faol targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotgani hammaga ma’lum. Shu mavzuda qator badiiy va hujjatli filmlar suratga olingani, o‘nlab tarixiy siymolarimiz, ma’rifatparvar jadidlar haqida bolalar va yoshlar uchun asarlar yaratishni davlat buyurtmasi asosida qo‘llab-quvvatlashga kirishilgani yurtdoshlarimiz tomonidan katta quvonch bilan kutib olindi.

Joriy yilning 30-may kuni qabul qilingan “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident qarorida ushbu muzey uchun Buxoroyi sharifning tanlanganini chinakam tarixiy adolat tantanasi, deyish mumkin. Zero, biz bilgan jadid taraqqiyparvarlarning barchasi millatni ma’rifatga boshlash dardini shu shaharda o‘zlariga “yuqtirib”, butun mol-u jonini shu yo‘lga tikkan zotlardir. Jadidlar merosi davlat muzeyi uchun “Yosh buxoroliklar” partiyasi yetakchilaridan bo‘lgan Usmonxo‘jadan meros qolgan Hovli Poyon majmuasining tanlanishi ham muhim ahamiyatga molik. Ustoz olim, professor Temur Xo‘janing aytishicha, bir zamonlar otasi aynan o‘zi yashagan shu mahobatli xonadonning ikkinchi qavatida mahalla bolalari uchun maktab ochgan ekan. Oradan bir asrdan oshiq vaqt o‘tdi. Ilm-ma’rifat masalasi hamon xalqimiz uchun dolzarb.

Bu muzey Buxoroyi sharifning qadimiy ilm maskani mavqeyini tiklash maqsadida kurashga jonlarini tikkan zotlar xotirasiga ulkan ehtirom namunasi bo‘lib xizmat qilishiga ishonchim komil. Muzey o‘zida zamonaviylik va milliylikni mujassam etgan, dunyodagi jadidshunos olimlarning ham, qalbida millatimizga, Vatanga muhabbat hissi jo‘sh urgan yoshlarimizning ham, ertamiz egasi bo‘lgan bolajonlarimizning ham birday sevimli maskaniga aylanadi.

**Bahrom IRZAYEV,
Qatag‘on qurbonlari xotirasi
davlat muzeyi bosh ilmiy
xodimi**

“O‘ZBEKISTONLIK. STUDENTS”



KALTAKNING IKKINCHI UCHI

Boshlanishi 1-sahifada.

So‘nggi paytlarda loyiha doirasida xorijda tahsil olayotgan o‘zbek talabalari hayotiga bag‘ishlab yaratilgan “O‘zbekistonlik. Students” turkumidagi video-hikoyalar yoshlarimiz orasida keng ommalashib, ishtiyoq bilan ko‘rilmoqda. Shu paytga qadar 5 ta qismi ommaga taqdim etilgan mazkur ko‘rsatuvlarda Buyuk Britaniya va AQShda ta’lim olayotgan umidli yoshlarimizning bosib o‘tgan hayot yo‘li, xorijda o‘qishning afzalliklari va boshqa turli jihatlar haqida so‘z boradi. Jahonning nufuzli universitetlarida ta’lim grantlari orqali o‘qiyotgan talaba yoshlarimiz hayotini o‘sib kelayotgan yosh avlodga namuna qilib ko‘rsatishdan, avvalo, ularga kelgusida kuchli motivatsiya bag‘ishlashdek ezgu maqsad ko‘zlangani shubhasiz. Biroq ko‘rsatuvlarni tomosha qilish jarayonida kishida ayrim e’tiroz va mulohazalar ham paydo bo‘ladiki, quyida shular xususida to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

“O‘zbekistonlik. Students”ning boshlovchilari Husnora Shodiyeva va Timur Alixonov bugun ijtimoiy tarmoqlarda o‘zlarining ijobiy kontentlari bilan yoshlar orasida ancha mashhur. Timur va Husnora kabi harakatchan “inflyuyenser” (jamiyatga ta’sir o‘tkazuvchi)larning ko‘rsatuvni olib borishi unga qiziqishni yanada oshirishi tabiiy. Biroq ularning xatti-harakatlarida jiddiy kamchiliklar kuzatiladi. Jumladan, boshlovchilar ko‘rsatuv davomida savollarni to‘g‘ri qo‘yishda, o‘zlarini tutishda xatolarga yo‘l qo‘yishmoqda. Xorijiy universitetlar haqida ma’lumot berishda ortiqcha his-hayajonga berilish, o‘zlarining shaxsiy fikrlariga ko‘p urg‘u berish, suhbatdoshining gapini tez-tez bo‘lib qo‘yish, ayniqsa, ba’zan o‘rinsiz ravishda O‘zbekiston haqida salbiy fikrlarni o‘rtaga tashlash kabi holatlar buning yaqqol misolidir.

Ijtimoiy tarmoqqa joylangan videolavhalar ostidagi izohlarni ko‘zdan kechirganda, aksariyat tomoshabinlar ham aynan boshlovchilarning chiqishidan norozi bo‘layotganiga guvoh bo‘lish mumkin. Bunga sabablar yetarlicha topiladi. Chindan ham, boshlovchining og‘ir-vazmin, har bir so‘zini fikr tarozisiga solib ifoda etish qobiliyati loyihaning yanada rivojlanishiga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlarda har qancha mashhur bo‘lmasin, professional ko‘nikmalari yetarlicha shakllanib ulgurmagan blogerlarning bunday muhim ko‘rsatuvlarda boshlovchilik qilishi unchalik o‘zini oqlamagan.

Timur Alixonovning ilk lavhadayoq Sharqiy London universiteti talabasi Azizbek Ahmadjonovga “Nima uchun O‘zbekistonda qolmagansiz?”, “O‘zbekiston ta’limida sizga yoqmagan 3 ta narsa nima?” kabi “kutilmagan” savollar berishi mantiqan o‘zini oqlamagan. Ko‘rsatuv boshidanoq mamlakatimiz haqida salbiy fikrlar uyg‘otuvchi bunday beo‘xshov savollarning berilishi tomoshabinda ham haqli savollar uyg‘otadi. Maqsad xorijdagi yoshlarimizning yutuqlarini ko‘rsatishmi yoki mamlakatimizni muammolar girdobida o‘ralashib yotgan qoloq davlat sifatida taqdim etishmi?..

Shuningdek, Londonning Nortumbriya universitetida ta’lim olayotgan Olimjon G‘ulomov bilan Buyuk Britaniya ta’limi haqida suhbatlashish ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, biroq asosiy e’tibor mamlakatimiz oliy ta’lim tizimidagi kamchilik va muammolarga qaratilgandek tuyuladi kishiga. Olimjon G‘ulomovning O‘zbekistondagi o‘qishi davomida universitetda fanlarni ustozlar bilan kelishib yopgani, oliy ta’limda korrupsiya illati haddan tashqari chuqur ildiz otgani, Vatanda qolgan tengdoshlari o‘z orzularigа to‘la erisholmayotgani, davlat xizmati tizimi ularning hafsalasini pir qilib, ambitsiyalarini butkul o‘ldirgani haqidagi fikrlari kishida og‘ir taassurotlar uyg‘otadi. O‘ylashimcha, loyiha qanchalik ezgu maqsadni ko‘zlasada, bu kabi holatlar foydalanuvchilar orasida Vatanimiz haqida salbiy fikrlarni ko‘paytirishdan boshqasiga xizmat qilmaydi.

Bunday lavhalarni kuzata turib, dastur boshlovchilari va ularning aksariyat suhbatdoshlari yurtimiz oliy ta’lim tizimini xorijiy davlatlarniki bilan taqqoslashda asosan biryoqlama, salbiy yondashuv yo‘lidan borayotganidan afsuslanasiz. Bu kabi fikrlar ancha yuzaki va umumiy mazmunga ega. Chuqur tahlil ko‘zga tashlanmaydi.

Ba’zi hollarda O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari korrupsiyaga botgan, ustozlar esa noprofessional, o‘z ishiga sidqidildan yondashmaydigan insonlar sifatida talqin qilinadi. Jumladan, Londonning Brunel universitetida ta’lim olayotgan G‘ayrat Yusupovning O‘zbekistonda ustozlar chin dildan dars bermasligi haqidagi fikrlari ko‘plab ustoz-pedagoglarimizning haqli noroziligiga sabab bo‘lgan. Buni video-lavha ostida qoldirilgan izohlarda ham ko‘rish mumkin. Mana, bir misol: “G‘ayratjon o‘g‘lim, o‘ylab gapiring, sizning boshqa yurtga borib olib O‘zbekistondagi ustozlarni chin dildan dars berishmasliklari xaqida gapirishga haqqingiz yo‘q!.. O‘zbekistonning ta’limi ortda bo‘lsa ham, ustozlari ortda emas! Essizgina”.

Bu mavzuda gapirganda “kaltakning ikkinchi uchi”ni ham unutmaslik lozim. Xo‘sh, bu kabi “haqqoniy tanqidlar” o‘zga davlatlarda O‘zbekistondagi ta’lim tizimi haqida qanday tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi? Albatta, bu sohada hali kamchiliklarimiz bor. Buni hech kim yashirayotgani ham yo‘q. Muhimi, ana shu kamchiliklarni bartaraf etish ustida jiddiy amaliy ishlar olib borilmoqda. Adolat yuzasidan aytganda, keyingi besh-olti yil ichida oliy ta’lim sohasida ilgari tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan o‘zgarishlar yuz bermadimi? Birgina test sinovlari tizimida adolat o‘rnatilishi millionlab yoshlar va ota-onalarning o‘qishga, umuman, hayotga munosabatini keskin o‘zgartirib yubormadimi?

Ustozlarni noprofessional deb malomat qilish ham o‘rinsiz. Hech kimga sir emas, oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari ham uzoq yillar davomida e’tibordan chetda qolib, zahmatli mehnatlari evaziga yetarli qadr topmay, amal-taqal yashab keldi. Biroq endi “peshanasiga oftob tekkach”, ularning ishga, kasbiga munosabati keskin o‘zgargan. Ustoz va murabbiylar ham o‘z ustida jiddiy izlana boshladi.

Umuman, O‘zbekiston ta’limi haqida gapirganda “kechagi gap bugunga to‘g‘ri kelmaydi”. Chunki hozirgi islohotlar jarayonida sohadagi ko‘plab kamchilik va muammolar tezkorlik bilan hal qilinmoqda.

“O‘zbekistonlik. Students”ning talabalar haqidagi 5 ta lavhasida chet el oliy ta’lim tizimida o‘qish yoshlarimiz uchun eng maqbul yo‘l sifatida tilga olinadi. Bunday yondashuv oliy ta’lim olish istagida bo‘lgan yoshlarimiz oldida “Vatanda qolib o‘qigan afzalmi yoki yagona najot – xorijda ta’lim olishdami” degan o‘tkir dilemma paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Buning oqibatida yoshlar orasida yurtimizdagi oliy ta’limga qiziqish darajasi pasayib, xorijda o‘qish ishtiyoqi kuchayadi.

Ma’lumki, chet elda o‘qish uchun kattagina mablag‘ talab qilinadi. Xo‘sh, iqtisodiy sharoiti o‘rtacha va undan past bo‘lgan oilalar farzandlarini xorijda o‘qitish uchun pulni qayerdan topadi? O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalariga nisbatan bunday bir tomonlama, salbiy yondashuvdan voz kechish kerak. Zero, bugun uchun bor-budini sotib, qarz ko‘tarib bo‘lsa-da, farzandini xorijga o‘qishga yuborish oqibatida jiddiy moliyaviy qiyinchiliklar girdobiga tushib qolayotgan oilalarni ham ko‘p ko‘ryapmiz.

Shuni ham aytish kerakki, loyiha sonlarini tomosha qilgach, tomoshabinda, ayniqsa, yoshlarda xorijiy davlatga ketishga, shaxsiy hayotini faqat chet mamlakat bilan bog‘liq holda qurishga kuchli ishtiyoq paydo bo‘lishi shubhasiz. Ko‘rsatuvlar ezgu maqsadda tayyorlanayotgan bo‘lsa-da, undagi lavhalar go‘yoki “jannatdan daraklar”ni yodga soladi. Xorijga katta tavakkal bilan borgan o‘zbek farzandi oxir-oqibat hamma havas qiladigan muvaffaqiyatli insonga aylanadi, baxtga erishish formulasi haqida ma’ruzalar o‘qiydi. Qaddini ursin. Bunga e’tirozimiz yo‘q. Lekin ularning yutuqlarini vosita qilib, hadeb milliy ta’limimizni kamsitaverish ham yaramaydi.

Biz bu bilan sohani tanqid qilish kerakmas, demoqchi emasmiz. Aksincha, hozirgi islohotlar jarayonida xolis tanqidning ahamiyati katta. Faqat bu o‘rinda tanqid bilan quruq malomatning chegarasini aniqlab olish lozim. Bizning aytayotgan so‘zimiz o‘zga davlatlarda O‘zbekiston ta’limi haqida qanday tasavvur uyg‘otishi xususida ham o‘ylab ko‘rishimiz zarur. Chet elda oliy ta’lim olishning eng maqbul yo‘l sifatida ko‘rsatilishi mamlakatimiz oliy ta’lim tizimining nufuziga ham soya solib, yoshlar orasida obro‘sizlanishiga sabab bo‘lishi hech gap emas.

Xorijiy mamlakatlar hayotini davomiy ravishda rang-barang, yorqin bo‘yoqlarda ko‘rsatib, ularni ideal turmush sifatida taqdim qilish ham yaxshi natijalarga olib kelmasligi aniq. Hayot past-balandliklardan iborat bo‘lgani kabi xorijda o‘qishning ham o‘ziga yarasha mashaqqatlari, kamchiliklari yetarli ekanidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Har joyning o‘z tosh-u tarozisi bor, axir. O‘zga ellarda to‘la-to‘kis baxtga erishish orzusi doim ham ushalavermaydi.

Bu haqda gapirganda Buyuk Britaniyada tahsil olayotgan talabalarga bag‘ishlangan ko‘rsatuvlarning biriga Aziz Azimov ism-sharifli foydalanuvchining qoldirgan izohi diqqatni tortadi: “Mening o‘g‘lim Kembrijda magistraturada o‘qiydi. Birlashgan Qirollikka o‘zim bir necha bor ish bilan borganman. Qo‘shma Qirollikda yashashning ko‘plab kamchiliklari bor, ularni ham ko‘rsatishga harakat qiling. Qiziq tomoni shundaki, o‘zbeklar bilan birga Hindiston, Pokiston, qashshoq Yaqin Sharq mamlakatlaridan talabalar ko‘p bo‘lgan bir paytda MDHning boshqa mamlakatlaridan talabalar soni juda ham kam. Xulosalar o‘zingizdan”.

Shunday ekan, ko‘rsatuv ijodkorlari chet el ta’limini bilib-bilmay eng maqbul yo‘l sifatida ko‘rsatish, ko‘klarga ko‘tarib maqtashga oid yondashuvni qayta ko‘rib chiqishi kerak. Zero, bunday videolarni yaxshi niyat bilan tomosha qilgan yoshlarda ertaga “tezroq chetga surish” istagi emas, aksincha, o‘zining kindik qoni tomgan Vatanini hurmat qilish va uni rivojlantirishga hissa qo‘shish istagi alanga olsin.

Xulosa qilib aytganda, “O‘zbekistonlik. Students” loyihasi ezgu g‘oyani – mamlakatimizda kamol topgan iqtidor egalarining olis yurtlarda katta yutuqlarga erishayotgani, ular ko‘p ishlarga qodir ekanini yoshlarimiz orasida targ‘ib etishni maqsad qilgan. Bu juda yaxshi, albatta. Ammo ana shu xayrli tashabbusni amalga oshirish borasidagi kamchiliklar kishini tashvishga soladi. Bunday nuqsonlar bartaraf etilsa, ushbu loyiha yanada mazmunli, ishonchli va qiziqarli bo‘lishi mumkin. Buning uchun, avvalo, ko‘rsatuvning g‘oyaviy konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqish kerak. Davlat mablag‘lari hisobiga suratga olingan ko‘rsatuv davlat siyosatiga, uning manfaatlariga xizmat qilishi, eng muhimi, uning g‘oya va maqsadlariga zid bo‘lmasligi shart. Chet eldagi hayotni ertaklardagi Susambil o‘lkasidek taqdim qilishdan tiyilgan ma’qul.

Niyatimiz shuki, xorijda oliy ta’lim olib, zarur bilimlarni yurtimiz rivoji yo‘lida safarbar etishga bel bog‘lagan yoshlarimizning hayotini yoritish mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlardan ko‘z yumish, ularni shubha ostiga olish evaziga amalga oshirilmasin. Zero, barchamiz shu yurtning farzandlarimiz, hammamizning Vatanimiz yagona – O‘zbekiston! Uning kamchiliklari ham, yutuqlari ham o‘zimizniki. Ana shu kamchiliklarni dunyoga ovoza qilmasdan, ularni bartaraf etish uchun barchamiz birgalikda harakat qilishimiz shart.

Olim DAVLATOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti direktori,
Avazbek SHERMATOV,
kichik ilmiy xodim

“Shunday film yaratsa bo‘lar ekan-ku!”

Boshlanishi 1-sahifada.

Xo‘sh, film bosh qahramoni Bahodir Yalangto‘sh aslida kim bo‘lgan? XVII asrda yashagan bu tarixiy shaxs hozirgi Nurota shahrida tug‘ilib o‘sgan. Harb ishlari va davlat boshqaruvida katta bilim va tajribaga ega bo‘lgan bu zot Buxoro xonligida juda katta obro‘ va hurmatga sazovor bo‘ladi. Shu bois Buxoro hukmdori uni Samarqand shahri hokimi etib tayinlab, ulkan vakolatlar beradi.

Bahodir Yalangto‘sh ma’rifatparvar va bunyodkor amir sifatida ko‘p xayrli ishlarga qo‘l uradi. U, ayniqsa, Samarqanddagi ancha xarob ahvolga kelib qolgan noyob me’moriy obida – Mirzo Ulug‘bek madrasasini to‘liq ta’mirdan chiqarish ishlariga boshchilik qiladi. Shundan so‘ng uning yonida Sherdor va Tillakori madrasalarini barpo etishga qo‘l urib, hozirgi go‘zal va muhtasham Registon me’moriy majmuasiga asos soladi.

Shuningdek, Bahodir Yalangto‘sh mohir sarkarda sifatida Buxoro xonligini tashqi dushmanlar hujumidan himoya qilishda ham ulkan jasorat va qahramonliklar ko‘rsatgan, qolaversa, odil va xalqparvar amir sifatida xalq mehriga sazovor bo‘ladi.

Xo‘sh, tomoshabinlarni bu qadar o‘ziga rom etgan tarixiy filmning asosiy muvaffaqiyati nimada? Avvalo, tomoshabinlar ekranda tariximizda muhim iz qoldirgan buyuk shaxs haqida dunyo darajasida yuqori saviya bilan suratga olingan, tom ma’noda to‘laqonli, qiziqarli va ta’sirli tarixiy filmni ko‘rishga muvaffaq bo‘ldi. Qolaversa, biz bilgan va hali yaxshi tanimagan aktyorlar ijrosining haqqoniyligi, hayotiyligi, xatti-harakatlarining ta’sirchanligi ham kino san’ati ixlosmandlarini sehrlab qo‘ydi.

Taqdimotdan so‘ng film rejissyori Jahongir Ahmedov bilan bog‘landik.



– Avvalo, bunday mas’uliyatli vazifani bizning ijodiy jamoamizga ishonib topshirganlari va umuman, kino san’atimiz rivojiga juda katta e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatayotganlari uchun hurmatli Prezidentimizdan cheksiz minnatdormiz, – dedi u. – Film milliy kinomiz tarixida birinchi marta “O‘zbekfilm” kinostudiyasida to‘liq pavilon sharoitida suratga olindi. Bu jarayonda zamonaviy kinotexnologiyalar, kompyuter grafikasidan keng foydalanildi. Tarixiy liboslar va dekoratsiyalar ilg‘or xorijiy tajribalar asosida yaratildi. Qozog‘iston va Qirg‘izistondan taklif etilgan taniqli aktyor va kaskadyorlar bilan samarali hamkorlik qilindi. Personajlarning xarakteri, taqdiri, plastikasi ustida to‘rt-besh oylab erinmay ishladik. Bosh qahramon Bahodir Yalangto‘sh obrazini boks va og‘ir atletika sport turlari bilan shug‘ullangan, shu choqqacha qator filmlarda suratga tushib, bu borada ham muayyan tajriba orttirgan sportchi va kinoaktyor Habibullo Nizomov ijro etdi. Nazarimda, u o‘zining zimmasiga yuklangan vazifani ado etib, ekranda Bahodir Yalangto‘shning obrazini to‘laqonli ravishda gavdalantirishga muvaffaq bo‘ldi.

Darhaqiqat, Habibullo Nizomov Bahodir Yalangto‘shni katta kuch-quvvat va buyuk salohiyatga ega bo‘lgan ulkan sarkarda, donishmand va xalqparvar amir, ilm va taraqqiyotning chinakam homiysi bo‘lgan ma’rifatli shaxs fazilatlarini birlashtirgan keng qamrovli obraz sifatida talqin qilishga muvaffaq bo‘lgan. Uning har qanday holatda o‘zini tutishi, xatti-harakatlari, hatto ko‘z qarashlari ham tomoshabinni ishontira oladi. Ayniqsa, bosh qahramonning jang maydonida ko‘rsatgan mahorati tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘ldi. Umuman, filmdan o‘rin olgan barcha jang sahnalari yuqori saviyada, tabiiy va ishonarli tarzda suratga olingan. Biz shu paytgacha asosan xorijiy filmlarda bunday holatlarni ko‘rib shunga o‘rganib qolgan edik. Aslida, chinakam e’tibor va rag‘bat bo‘lsa, yosh iqtidorlarga ishonch bildirilsa, ular ham bemalol dunyo kinosi bilan bo‘ylashadigan asarlar yaratishi mumkin ekan.

“Bahodir Yalangto‘sh” badiiy filmi har tomonlama puxta tayyorgarliklar natijasida, sohaga professional yondashuv asosida suratga olingani yaqqol seziladi. Asarning dramaturgiyasi, puxta ishlangan, personajlarning tili ravon va shirali, voqea-hodisalar izchil va shiddatli kechadi. Xon va amir saroylarida zimdan olib boriladigan kurashlar, shuning ortidan kelib chiqadigan turli-tuman intrigalar, turli lavozim va darajaga ega a’yonlar o‘rtasidagi pinhoniy kurashlar kartinaning tomoshabopligini oshirishga xizmat qilgan.

Ayniqsa, filmda Bahodir Yalangto‘shdan tashqari Imomqulixon, Abdurahmon devonbegi, Nazirmuhammad, Erdene bahodir, Jo‘ng‘or malikasi singari yetakchi obrazlar ham tomoshabinda katta qiziqish uyg‘otadi. Matyoqub Matjonov, Behzod Muhammadkarimov, Tohir Saidov, Boir Xolmirzayev, Daulet Abdigaparov, Arina Isakova, Shahrizoda Solihova va boshqa aktyorlar bunday obrazlarni ekranda gavdalantirishda o‘zlarining bor mahorati va salohiyatini namoyon qilganini ko‘rish mumkin. Shu o‘rinda Bahodir Yalangto‘shning o‘g‘li rolini gavdalantirgan aktyor Ozodbek Qayumovning o‘ziga xos ijrosini ham alohida qayd etish joiz.

“Bahodir Yalangto‘sh” filmi ssenariyisi rejissyor Jahongir Ahmedov va ijodkor Hasan Toshxo‘jayev hammuallifligida yozilgan. E’tiborli jihati, ular “Ilhaq” badiiy filmini yaratish chog‘ida ijodiy hamkorlikda ishlagan. Ushbu ijodiy tandemning mahorati filmdan-filmga o‘sib borayotgani yaqqol ko‘zga tashlangan.

Film lavhalarini ishonchli va jozibador tarzda tasvirga olishda iste’dodli operatorlar Ivan Solomatin, Izzatilla Lutfullayev, Jahongir Ibragimov, rassom Bahriddin Shamsuddinov, liboslar rassomi Zuhra G‘aniyeva, grimm ustasi Mahbuba Isanova juda katta izlanishlar olib borishgani yaqqol seziladi. Taniqli bastakor Doniyor A’zamov bastalagan musiqalar filmni mazmunan boyitish va tomoshabopligini oshirishga xizmat qilgan.

Shubhasiz, bunday ulkan miqyosli filmning yaratilishi o‘zbek prodyuserlik maktabining ham katta yutug‘i hisoblanadi. Bu borada kartina prodyuseri Zafar Yo‘ldoshevning xizmatlari juda katta.

Taniqli jurnalist Sharofiddin To‘laganovning “Bahodir Yalangto‘sh” filmi haqida bildirgan quyidagi mulohazalari ham jo‘yali: “...Film Samarqandning o‘tmishi, o‘sha davrning tarixiy muhiti haqida batafsil ma’lumot beradi. Filmni ko‘rgan tomoshabinlar yurt tinchligi, osoyishtaligi, xavfsizligiga tahdid solishda tashqi dushmanlardan ko‘ra, ichki adovat, o‘zaro xusumat va fitnalar xavfliroq ekaniga yana bir karra ishonch hosil qiladi”. Darhaqiqat, mazkur film odamlarni ogohlikka, hushyorlikka, ayni paytda hamjihatlikka chorlovchi ruhiyati bilan ham muhimdir.

“Bahodir Yalangto‘sh” badiiy filmining umumiy ruhi, rejissyor va aktyorlar mahorati, ijodiy jamoaning hamjihatligi, tasviriy jarayonning yuqori saviyada amalga oshirilganidan yaqqol dalolat beradi. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu film namoyishi o‘zbek kino ustalari ham yurtimiz tarixi, o‘tmishi haqida hikoya qiluvchi durdona filmlar yaratishga qodirligini ko‘rsatdi. Shuning uchun bu film milliy kino san’atimiz rivoji tarixidan munosib o‘rin egallashiga zarracha shubha yo‘q.

Gulchehra UMAROVA

JADIDSHUNOSLIK

“Miya o‘zgarmaguncha boshqa o‘zgarishlar negiz tutmas!”

yoxud Elbekni o‘zgartirgan tashkilot

Elbek taxallusi bilan tanilgan Mashriq Yunusovning ijodkor sifatida shakllanishi va adabiyot olamiga kirishida Fitrat tomonidan tashkil etilgan “Chig‘atoy gurungi” tashkilotining o‘rni va roli katta. Binobarin, Elbek o‘zining ilk ijod namunalariga “Chig‘atoy gurungi” deya imzo chekkani ham bejiz emas. Ammo keyinchalik, to‘g‘rirog‘i, 1919-yildan boshlab u ustozi Fitratning taklifi bilan o‘ziga Elbek taxallusini oladi. “Gurung” o‘sha davrdagi juda ko‘p ijodkorlar qatori yosh Elbekning ham hayotini, dunyoqarashini o‘zgartirdi, uni o‘zgacha fikrlashga o‘rgatdi.



Dastlab ushbu tashkilot faoliyatiga bir qur nazar solsak. Yangicha adabiyot paydo bo‘lgandan keyin Turkistonda ilk adabiy uyushmalarga ham ehtiyoj tug‘ildi. Shu vaqtgacha bo‘lgan davrlarda asosan xonlar atrofida, saroy muhitida to‘plangan ijodkorlar faoliyati inobatga olinib, “Qo‘qon adabiy muhiti”, “Buxoro adabiy muhiti”, “Xorazm adabiy muhiti” istilohlari bilan atalib kelingan bo‘lsa-da, ular ma’lum bir tuzilmaga ega bo‘lmagan. Yurtimiz hududidagi ilk adabiy uyushma, yuqorida ta’kidlaganimizdek, jadid bobolarimiz tomonidan tashkil etilgan “Chig‘atoy gurungi” uyushmasi edi. Jadid adabiyoti taqiqqa uchragach, ular tomonidan tashkil etilgan adabiy uyushmalar nomi ham qora ro‘yxatlarga ko‘chdi. Xususan, sobiq sovet davri o‘zbek adabiyoti tarixiga bag‘ishlangan barcha kitob va maqolalarda “Chig‘atoy gurungi” millatchilik va panturkizm g‘oyalarini olg‘a surgan, o‘ta reaksion adabiy uyushma sifatida tilga olinib kelingan. Hatto, bu tashkilotga kirishni adashish deya atab, buni isbotlashga uringanlar ham uchragan. Xususan, go‘yo Elbek tilidan “tavbadek” yangragan “Chig‘atoy gurungi”ning oz ishlagan ishida ko‘p xatoliklar bo‘lsa ham mumkin. Men ham u vaqtlarda o‘sha yerda ishlaganim uchun xato qilmadim deb, ko‘zimni chirt yumib o‘ltirmayman, xato bor edi”, kabi jumlalar vositasida bu tashkilot faoliyatiga bo‘htonlar ham yog‘dirilgan.

Turkistondagi ilk adabiy uyushmaning Fitrat tomonidan “Chig‘atoy gurungi” deb nomlanishining o‘zi ham tashkilotning buyuk maqsadlari borligini ko‘rsatadi. Mazkur uyushma nafaqat yozuvchi, shoirlarni rag‘batlantirib, ularning badiiy asarlarini chop etish, balki guruhlarga bo‘lingan holda, butun adabiyot va tilshunoslik tarixi, rivoji va o‘sha davr holatini chuqur tahlil va tadqiq etishga kirishdi. Fitrat “Gurung”ning bevosita rahbari sifatida butun o‘zbek mumtoz adabiyotining eng qadimgi davridan boshlab o‘rganishga, boshqa shoir va yozuvchilarga adabiyotning mohiyatini anglatishga kirishdi. O‘zbek adabiyoti nazariyasiga asos solgan Fitratning da’vatiga ko‘ra Elbek xalq ijodi namunalarini to‘plab, o‘rganishni o‘z zimmasiga oladi. Qishloqma-qishloq ijodiy safarlarda yurib, odamlar og‘zidan qo‘shiq, laparlar, “yor-yor”lar-u dostonlarni qog‘ozga tushiradi. Keyinchalik bu jarayonlar uning ijodiga ham ijobiy ta’sir o‘tkazganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, Qayum Ramazon o‘zbek tili tarixi va nazariyasi bilan bevosita shug‘ullangan bo‘lsa, Cho‘lpon o‘zining serqirra ijodi bilan tadqiqot obyekti o‘laroq bu sohaga salmoqli hissa qo‘shdi.

Aytish kerakki, Fitratning azaliy maqsadlaridan bo‘lgan mazkur uyushmani tashkil etish oson kechmagan. Ushbu jarayonni professor Hamidulla Boltaboyev shunday izohlaydi: “Fitrat 1917-yilda Samarqandda “Hurriyat” gazetasiga muharrirlik qilish barobarida, madaniy jabhada harakat qiluvchi Turkiston teatro‘, musiqiy va adabiyot dastasini tuzgan va bu to‘garak ma’lum bir ma’noda “Chig‘atoy gurungi” uchun muayyan bir tayyorgarlik vazifasini o‘tagan, “gurung” faoliyatining dastlabki nuqtasi ana shu yerdan boshlangani xorijiy olimlar tomonidan to‘g‘ri qayd etiladi”. Fitrat Toshkentda istiqlolchi adib va olimlar ishtirokida siyosiy tashkilot tuzilishi uchun ruxsat olishga erisha olmaydi. Garchi Toshkent shahar ijroqo‘mi raisi Kolesov amirga qarshi kurashda yosh buxoroliklar bilan hamkorlik qilgan bo‘lsa ham, bunday millatparvar tashkilot tuzilishining oqibatini yaxshi anglagan edi. Shuning uchun ham rasmiy doiralar, jumladan, Toshkent shahar soveti “gurung” tuzilishiga “siyosatga aralashmaslik sharti bilan” rozi bo‘ladi.

Tashkilot siyosatga aralashmasa-da, adabiy-badiiy asarlar orqali xalq ongini uyg‘otish, istiqlolchilik g‘oyalarini yoyish, eng muhimi, milliy o‘zlikni tiklashni ko‘zlagani uchun istilochilarga yoqmaydi. Ular ming bir vaj-u turli tuhmatlar bilan avval bu tashkilot a’zolarini, so‘ngra uning o‘zini yo‘q qilishga urinadi. Fitratning “Chig‘atoy gurungi” rahbari sifatidagi so‘nggi ishi 1921-yil yanvarida o‘zbek tili va uning imlosini o‘rganish bo‘yicha birinchi o‘zbek o‘lka qurultoyini o‘tkazish va 1922-yilda “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plamini chop etish bo‘ldi. Mazkur to‘plam o‘sha davrdagi eng iste’dodli shoirlarning ijod mahsullaridan tuzilgan bo‘lib, adabiyotning umumiy manzarasini o‘zida aks ettirardi. Tashkilot o‘zbek jadid she’riyati shakllanishida ham katta o‘rin tutadi. Qator jiddiy muhokamalar bilan o‘zaro tajribalar almashgan “gurung”chilar: Fitrat, Cho‘lpon, Botu, Elbeklar ijodi keyingi davr o‘zbek she’riyatining iste’dodli vakillari Usmon Nosir, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Mirtemirlarning shakllanishiga katta turtki berdi. Shu bilan bir qatorda, mazkur uyushma keyingi shu kabi tuzilmalar uchun ham tajriba maydonchasi bo‘ldi.

Juda qisqa davrda faoliyat ko‘rsatgan tashkilot katta ishlarni amalga oshirdi va o‘zbek adabiyoti uchun yangi bir yo‘lni boshlab berdi. Fitrat boshchiligida bir guruh ziyolilar o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini, shuningdek, folklor va til boyligimizni chuqur o‘rganish va targ‘ib etishga kirishdilar. Bu shunchalik tez va shiddat bilan bordiki, mustamlaka hukumatini cho‘chitib yubordi. “Milliy-madaniy muxtoriyat” so‘zlarini o‘ziga shior qilib olgan “Chig‘atoy gurungi” bir yil muqaddam qizil qo‘shin tomonidan tor-mor etilgan “Turkiston muxtoriyati” g‘oyasini adabiy-madaniy jabhada davom ettirishni o‘zining burchi deb bildi. Bu jarayonda Elbek xalq ijodi namunalarini to‘plash va o‘rganishni o‘z zimmasiga oldi. U 20-yillar “Chig‘atoy gurungi” to‘garagidagi faoliyati davomida o‘z she’rlarini jamlab kitob holida nashr ettirdi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plab bostirdi, “Chig‘atoy gurungi” tarkibidagi “Imlo to‘dasi” (1920-yil) guruhida til va imlo masalasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borib, “Til”, “Alifbo masalasi”, “Imlo masalasi” kabi maqolalarini e’lon qildi.

Elbek jadid ma’rifatparvarlarining so‘nggi vakillaridan biri sifatida til va imlo masalasida juda qattiq turardi. O‘zbek tilining sofligi, adabiyotimizning, xalq og‘zaki ijodimizning keng targ‘ib etilishi uchun jonini berishga ham tayyor edi. Zero, 22 yoshli yigitning o‘sha davr siyosati, mustamlakachilarning g‘arazli maqsadlarini teran anglab, ularga qarshi kurashga shaylanganini “Til” maqolasidan ham bilsa bo‘ladi. Muallif ona tilimizni asrashning naqadar dolzarb ekanini ta’kidlar ekan, “qo‘li ustun bo‘lg‘on bir el o‘zidan kuchsiz bo‘lg‘on ikkinchi bir elni o‘ziga qaratmoqchi, yutmoqchi bo‘lg‘onda, eng ilgari shu elning tilin yo‘qotmoqqa kirisharlar”, deya yozadi. Maqolada garchi rus mustamlakachilari haqida gap bormagan, arablarning Turkistonga va Eronga bosqini natijasida bu ikki xalq tili qay darajada o‘zgarib ketgani misolida tushuntirilgan bo‘lsa-da, oldinda undan-da katta xavf turganiga ishora qiladi. Elbek “Gurung”da Imlo to‘dasida faoliyat ko‘rsatgani uchun yangi imlo yaratish va uni tezlik bilan joriy etish masalasini olg‘a suradi. Zero, jadidlarning maqsadi dunyoga chiqish, G‘arb bilan bo‘ylashish edi. Buning uchun esa ular ham tushunadigan yozuvda ijod qilish va ularning yozuvini anglash lozim bo‘lardi. Shu boisdan ham yangilikka intiluvchilar qatorida bu guruh vakillari ham tinimsiz imlo bahsiga kirishar edi. Ammo xalqni yangi imloga o‘tkazish hech qachon oson kechmagan. Elbekning o‘zi yozganidek, “turli kishilar turli tilda yoza boshladilar. Qaysi birlari Chig‘atoy gurungi tomonidan yosolg‘on imloni qabul qilib, oning yo‘li bilan ketadilar; qaysi birlari esa ul imloning o‘ziga-da va chiqaruchilarig‘a-da qarshu ketib o‘zlarining ilgarigi tutqon yo‘llarida qolaverdilar. Eng so‘ng ichki Rusiyada bo‘lg‘on imlo o‘zgarishini ko‘rgach, olarning qaysilari sekin chig‘atoy imlosining tuvaragiga yig‘ildilar. Ham shul imloda yozodig‘on bo‘ldilar. Belgili, ish buning bilan bitmas edi, zero zamon yuksaluv zamoni; bu kungi ish ertaga eskirib, ishdan chiqib qoladur. Ong‘a yetmoqni istovchilar uchun, albatta, yangilikning ketidan ketuvdan boshqa chora yo‘qdur”.

Elbek til va imlo, alifbo masalasida bir nechta turkum maqolalar chop etadi va o‘zining faol pozitsiyasini bildiradi. Bunday munosabatlar, albatta, Fitrat va “Chig‘atoy gurungi”ning ta’siri edi. Ayni shu davrda qilingan islohotlar, yangiliklar keyinchalik o‘zbek tili va adabiyotining rivojlanishiga muayyan xizmat qildi. Fitrat boshchiligidagi “Chig‘atoy gurungi” a’zolari ilk bor o‘zbek tilini ilmiy asosda o‘rganishga kirishdilar. Ular til qoidalarini rus yoki arab tili grammatikasi bo‘yicha emas, balki shu tilning ichki xususiyatlari asosida yoritish kerakligini tushunib yetganligi sababli tarixiy asarlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, shevalar asosida materiallar to‘plab, ularni ilmiy jihatdan o‘rgana boshladilar. Natijada matbuot sahifalarida Elbek, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zunnun (Elchi)larning o‘zbek tili tovushlari, unlilar, singarmonizm masalalaridan bahs etuvchi maqolalari ko‘rina boshladi. Bular sovet davridagi o‘zbek tilshunosligiga bag‘ishlangan ilk ilmiy tadqiqotlar edi.

“Gurung”ning asosiy bongchisi bo‘lgan “Tong” jurnalining nishona soni 1920-yil 9-aprelda bosmadan chiqdi. “Yashasin ilmi adabiy, ijtimoiy o‘zgarish! Miya o‘zgarmaguncha, boshqa o‘zgarishlar negiz tutmas! Yashasin Sharq qutulishi!” so‘zlarini o‘ziga shior qilib olgan jurnalning tashabbuskori Fitrat, tahrir hay’ati a’zolari esa Elbek va Botu edi. Afsuski, bahor tongidek ziyolilar ko‘ngliga zarrin nurlari bilan yangi nafas olib kirgan ushbu jurnal atigi uchta soni nashr etilgach to‘xtatiladi.

Elbek o‘z ijodining dastlabki yillaridanoq erk va erksizlik haqida baralla kuylagan. Jumladan, 20 yoshida yozgan “Tutqun qushcha” she’rini olaylik. Bir qarashda qafasdagi qushchaning dardini his etib, unga achinish ma’nosida bitilgan satrlar. Ammo she’r so‘ngida “Kuch to‘pla, kuch bilan qafasing buzg‘il, Qulliqning oltinli bo‘g‘ovin uzg‘il”, deya ta’kidlashi erk yo‘lida nola qilayotgan, biror amaliy harakat boshlamay, nolishlardangina iborat bo‘lib qolayotgan norozilik kayfiyatining ish bermasligini anglatish, dadil va samarali harakat uchun undov edi. “Chig‘atoy gurungi”dagi faoliyati esa bu isyonkorlikni yanada jo‘shtirib yuboradi. 21 yoshida bitgan “Qarg‘a” she’rida ham turli ramzlar orqali yurtimizga bostirib kelgan bosqinchilar qora qarg‘alarga qiyoslanib, ularning mustamlaka yerlaridagi go‘zallikni ko‘ra olmasligi, shumqadamligi tamsiliy vositalar orqali ifoda etiladi:

Qunt qilsangiz, tanirsizlar ularni,
Yoz istamas go‘zal qanotlarini.
Ular bilmas bulbul kabi o‘qishni,
Bari bilar ko‘rganlarin cho‘qishni.

Elbek “Chig‘atoy gurungi”da asosan til va imlo masalasida ishlagan bo‘lsa-da, el adabiyotini yig‘ish, xalq og‘zaki ijodini o‘rganishga ham katta e’tibor qaratadi. Izlanib o‘rganganlaridan ta’sirlanib, o‘zi ham xalqona yo‘nalishda she’rlar, qator masallar yaratadi. Ashurali Zohiriy aytganidek, “...shoir Elbek xalq mulki – og‘iz adabiyotini xalqdan olish va xalqqa qaytadan yetkazishda el tilining tushunarli ta’sirlaridan foydalangan, el bolalar adabiyotida masalchilikni yaratgan katta san’atkor” edi. Shoirning 18 ta masaldan tashkil topgan ilk “Armug‘on” to‘plami 1921-yili nashr qilingan bo‘lsa, 1923-yilda jiddiy tahrirlar bilan qayta bosmadan chiqadi.

Elbek masallarni bolalar uchun yozgan bo‘lsa-da, unda chuqur ijtimoiy muammolar, shoirning dard-alamlari yashirin ramzlar vositasida o‘z aksini topadi. Shoir o‘zining “Ot ila odam”, “Qaysi biri bo‘ri?”, “Sichqonxonning qiz uzatishi”, “Olaqarg‘a bilan qurbaqa”, “Ikki tulki”, “Kampirning tovuqlari”, “Fil va laycha” kabi masal va ertak-masallari orqali nozik kulgi va yumor vositasida zamonasining dolzarb muammolarini ochib bera olgan.

“Ot ila odam” masalida ham e’tiborni tortadigan jihatlar bisyor. Unda o‘z yaylovida toza o‘tlardan yeb, tiniq buloqlar suvin ichib, rohat-farog‘atda, eng muhimi, erkinlikda yashab kelayotgan ot bir kuni nogoh yaylovida bir ho‘kizning o‘tlab yurganini ko‘rib qoladi. Bundan jahli chiqib, uni haydab yuborish uchun odamdan yordam so‘raydi. Odam esa piyoda uzoqqa borolmasligini bahona qilib, otni no‘xtalab, minib oladi. Ot maqsadiga erishadi. Ho‘kiz yaylovdan quviladi. Ammo uning ustiga chiqib, jilovini qo‘liga olgan odam otni ozod qilishni xayoliga ham keltirmaydi. Asl vaziyatni, odamning maqsadini anglab qolgan otning yolvorishlari bekor ketadi:

Otning bunday yalinishlarin ko‘zga ilmay,
Uning shunday holig‘a hech rahm qilmay,
Qamchi bilan aylantirib to‘rt-besh urdi:
Ho‘kiz bilan birga qo‘shib bog‘lab qo‘ydi...

Shoir izohda “Buning asli xalq ertaklaridan olinmishdir”, degan bo‘lsa-da, unda o‘sha zamon siyosiy tuzumi yaqqol akslanadi. Masal yozilgan vaqtda, ya’ni 1921-yili sovetlarning mustamlaka siyosati mustahkamlanib, xalq masaldagi yordam so‘rab qo‘lga tushgan ot kabi “qoziqqa bog‘langan” – erki va huquqlaridan mahrum etilgan palla edi.

Xulosa qilib aytganda, “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti o‘zbek adabiyotining tub burilishiga, o‘sha davr ijodkorlarining katta jasorat va ishtiyoq bilan ijod qilishiga, ma’lum maqsad va g‘oyalar atrofida birlashishiga katta dastak bo‘lgan. Xususan, ushbu uyushma Elbek ijodining kurtak yozib, shakllanishi, keyinchalik unda folklorga rag‘bat uyg‘onishi, til va imlo masalalarida o‘z fikriga ega bo‘lishi, milliy o‘zlik g‘oyasining she’rlariga singishiga zamin yaratgan. Binobarin, Turkiston muxtoriyatining g‘oyaviy vorisi bo‘lgan bu tashkilotning maqsadlari jadidlar bilan birga yashadi, birga rivojlandi va afsuski, birga ko‘mildi.

Bekzod IBRAGIMOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Alloberganov Sapo Mug‘oniy – 1882-yili Urganchda tug‘ilgan. “Milliy istiqlol” tashkiloti a’zosi. 1929-yili VKPdan chiqarilgan. Hibsga olingan vaqtda musiqachi bo‘lgan. Doimiy ravishda aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 28-avgustdan hisoblangan.

Matchonov Po‘lat – 1904-yil Urganch shahrida tug‘ilgan. “Ozod Turkiston” tashkilotining sobiq a’zosi. Hibsga olingan paytda elektrostansiya direktori bo‘lgan. Doimiy ravishda millatchilik, aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 28-avgustdan hisoblangan.

Bekjonov Durdi Qori – 1897-yili Urganch shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi. Aksilinqilobiy faoliyat bilan shug‘ullanganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Unga tegishli mol-mulk musodara etilgan.

QATAG‘ON QURBONLARI

Jumaniyozov Sulton Qori – 1878-yili Xiva shahrida tug‘ilgan. 1924-yili Xorazm xalq respublikasi Markaziy Ijroiya Komiteti raisligida Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qo‘zg‘olon to‘g‘risidagi buyruqqa imzo chekkan. “Milliy istiqlol” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. Izchil tarzda aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Molmulki musodara etilgan.

Akbarali O‘rozaliyev – 1890-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining faol a’zosi. 1936-yili sentyabrda aksilinqilobiy faoliyati uchun 3 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Jazo muddatini o‘tayotgan vaqtda mahbuslar orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, lagerda mehnat intizomini buzganlikda, mahbuslarni ishga chiqmaslikka chaqirganlikda ayblangan.

Alimov Muxtorjon – 1901-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. 1931-yili qamoqqa olingan, millatchi tashkilotga a’zo bo‘lganlikda ayblanib partiyadan o‘chirilgan. 1919-yildan “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi sifatida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borgani uchun O‘zSSR JK 60- va 67-moddalari bo‘yicha ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 14-sentyabrdan hisoblangan.

Shayxov Dada Mirza – 1880-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. “Jamiyati Islomiya” va “Nashri maorif” tashkilotlarining faol a’zosi. Qamoqqa olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. U “Milliy ittihod” a’zolari yig‘ilishlarida faol ishtirok etganlikda, Sovet hokimiyatiga qarshi aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, O‘zSSR JKning 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 14-sentyabrdan hisoblangan.

Asrorov Mahmudxon – Namangan shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Sobiq qurollangan bosqinchi sifatida ayblangan. Hibsga olingan paytda meva-sabzavot kombinatida ishlayotgan bo‘lgan. U Omonpolvon va Madaminbek to‘dalarida faol qatnashganlikda, qurol-aslaha mudiri, g‘aznachi va qozi bo‘lib xizmat qilganlikda ayblangan.

Abdushohidov Kamoljon – 1882-yili Chust shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. Hibsga olingan paytda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. U aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, kapitalistik mamlakatlardagi hayotni maqtaganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 19-noyabrdan hisoblangan.

Oxunboboyev Nasriddin – 1878-yil Namangan shahrida tug‘ilgan. Kamomad qilgani uchun 5 yil qamoqqa hukm etilgan. O‘tmishda “Milliy ittihod” tashkilotining faol a’zosi. Qamoqqa olingan vaqtda sabzavotchilik ittifoqining agenti bo‘lgan. Aholi orasida izchil tarzda aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 19-avgustdan hisoblangan.

To‘xtaboyev Abdukarim – 1898-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. Jadidlik harakati ishtirokchisi, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilot a’zosi. U aholi orasida Sovet hokimiyatiga qarshi aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xalq dushmani F.Xo‘jayevni maqtaganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 17-noyabrdan hisoblangan.

Ubaydullayev Ismatulla – 1899-yili Kosonsoyda tug‘ilgan. “Milliy ittihod” ishtirokchisi. U aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xalq dushmanlari A.Ikromov va F.Xo‘jayevni maqtaganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Unga tegishli mol-mulk musodara etilgan.

Xojiyev Tohir – 1898-yili Shahrixonda tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi, qo‘rboshining shaxsiy kotibi. Qamoqqa olingan paytda hech qayerda ishlamagan. Aksilinqilobchi, qo‘zg‘olonchi guruh a’zosi, xalq dushmani Ibodatxo‘jayev tomonidan uyushtirilgan aksilinqilobiy yig‘inlarda faol qatnashgan. Aksilinqilobiy, mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Mol-mulki musodara qilingan.

Boqixo‘jayev Barno – 1900-yili Shofirkonda tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi. Milliy, aksilinqilobiy yig‘ilishlarda qatnashgan. Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash olib borish masalasini qo‘ygani, aksilinqilobiy mag‘lubiyatchilik targ‘ibot olib borgani uchun ayblanib, 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yili 2-dekabrdan hisoblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

ADIBLAR XIYOBONI

“Mukofotni o‘z egasi – otamga topshiraman”

Kelajak bugundan boshlanadi, deyishadi. Darhaqiqat, shunday. Aks holda, o‘z farzandlariga qarata: “Tap tortmay yelkamga chiq-da, mendan o‘n kalla baland bo‘l, bolam!” deydigan, hech ikkilanmay kelajakka sarmoya kiritadigan otalar juda kamyob bo‘lardi. Fidoyi o‘g‘illar: “Dada, baribir meni o‘qitolmaysiz, undan ko‘ra, o‘zingizni – bugunni o‘ylang. Men xorijga, ishga ketaman”, deydigan bo‘lsa, “Bugundan boshlab buguning bilan o‘zing, kelajaging bilan men shug‘ullanaman. Sen o‘qi”, deydigan otalar, xayriyatki, ko‘p. Bu ham kelajakka ishonchdan, aslida.



Ha, yosh avlod bilan do‘stona kengasha oladigan, kerak bo‘lsa, unga o‘z yelkasini zina qiladigan tanti otalar farzandlarining bugunini ham, kelajagini ham ta’minlashga qodir. Kuni kecha Adiblar xiyobonida bo‘lib o‘tgan “Ilhom” mukofoti sovrindorlarini taqdirlash marosimida men bunga yana bir bor amin bo‘ldim. Tanlovda 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan, “Damas” avtomobili sovrindori Shahzod Otamurodovning hayajonli so‘zlari hamon quloqlarim ostida jaranglaydi.

– Avvalo, biz yoshlarga yaratilgan shart-sharoitlar uchun Prezidentimizga, universitetimiz jamoasiga va albatta, otamga o‘z minnatdorligimni bildiraman, – dedi u. – Maktabni bitirganimdan so‘ng: “Ota, men Rossiyada ishlab kelmoqchiman. O‘qimayman”, degandim. U kishi: “Sendan buni kutmagandim, bolam!” deb indamay o‘rnidan turib ketdi. Xayolimda otam birdan kichrayib, bir burda bo‘lib qolganday tuyuldi. Shu voqea ta’sir qilib, Toshkent davlat yuridik universitetiga hujjat topshirdim. O‘qishga kirdim. O‘qiyapman ham. O‘zi yemay-ichmay, birovdan kam qilmay, bekam-u ko‘st bilim olishim uchun hamon velosipedda yuradigan otamning fidoyiligi sabab bugun men shunday yutuqqa erishdim. Ruxsatingiz bilan, hozir bu mukofotni o‘z egasi – otamga topshirsam...

Sahnadagi otaning sevinch ko‘z-yoshlari-yu farzandning samimiy iqrori naqadar go‘zal, naqadar zalvorli edi. Ikkinchi, uchinchi o‘rinlarni egallagan Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti Ruxsora Imomova, Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi Dildora Yorbulova va boshqa rag‘batlantiruvchi mukofot sohiblarining yuzko‘zidagi quvonch-u mamnuniyat ifodasini ko‘rish ham maroqli edi, albatta. Negaki, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘tkazilayotgan yosh ijodkorlarning Zomin an’anaviy respublika seminari, “Vatan manzumasi” va boshqa o‘nlab tadbirlar yoshlarning o‘z ijodiy qobiliyatini to‘la namoyon etishlariga xizmat qilmoqda. Ularning ko‘p nusxadagi kitoblari chop etilib, ijodi munosib ravishda rag‘batlantirilmoqda. “Ilhom” mukofoti ham atoqli adiblar ijodini keng o‘rganish, asarlarini tarjima qilish, tadqiq etish, kino va sahna asarlari yaratish kabi ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-ijodiy jarayonda yuqori natijalarga erishgan, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olib, faoliyat yuritayotgan ijodkor yoshlarni rag‘batlantirish maqsadida ta’sis etilgan bo‘lib, tanlovning bu yilgi g‘oliblari o‘n mingdan ortiq talaba-yoshlar orasidan saralab olingan.

G‘oliblarga mukofotlarni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari Zulayho Mahkamova, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari Shohrux Daliyev topshirdi.

Shuhrat AZIZOV

Abdumannon MUHAMMAD olgan surat.

TARMOQLARDA NIMA GAP?



Biz qaroqchimizmi?

Sudanlik do‘stlarimdan biri ajoyib bir maqola yozdi. Sarlavhasi – “Nahotki men qaroqchiman?” Maqolada u o‘zi guvohi bo‘lgan ikkita voqeani keltiradi.

“Birinchisi. Irlandiyada tibbiyotdan imtihonlarim bor edi. Imtihon to‘lovi 309 funt. Menda esa mayda pul yo‘qligi sabab 310 funt berdim. Muhimi, imtihonni topshirdim. Sinovlar tugagach, Sudanga qaytdim. Sal o‘tib, Irlandiyadan xat keldi. Unda shunday yozilgandi: “Siz imtihon haqini to‘lashda xatoga yo‘l qo‘yibsiz. 309 funt o‘rniga 310 funt to‘labsiz. Sizga bir funtlik chek yubordik. Biz o‘z haqimizdan ortig‘ini olmaymiz”. Qizig‘i, maktub bilan markaning narxi bir funtdan qimmatroq edi.

Ikkinchisi. Men fakultetga qatnardim. Uyim bilan fakultet oralig‘ida bir ayol ul-bul sotib o‘tirardi. Men undan 18 pensga kakao sotib olardim. Bir kuni o‘sha yerdan o‘tayotsam, do‘konning boshqa tokchasida aynan shunday kakaoning narxi 20 pens yozilganiga ko‘zim tushdi. Men taajjublanib so‘radim:

– Nega birinchi tokchada kakaoning narxi 18 pens, ikkinchisida 20?

– Bizga kakao Nigeriyadan eksport qilinadi. Yaqinda u yerda favqulodda vaziyat sodir bo‘libdi. Shu sabab narxlar ko‘tarilibdi. Bu tokchadagi kakao keyinroq kelgan yukdan. Shuning uchun u qimmat. Mana bunisi esa oldingisidan. Shuning uchun bunisi arzon.

– Unday bo‘lsa, odamlar oldin arzonini olishadi-ku. U tugasagina qimmatiga o‘tishadi. Axir, arzoni tugamaguncha qimmatini hech kim olmaydi-ku, – dedim.

– Ha, buni bilaman, – dedi u.

– Ularni aralashtirib, arzonini ham 20 pensdan sotsangiz bo‘lmaydimi? Buni hech kim bilmaydi-ku!

Shunda u qulog‘imga:

– Sen qaroqchimisan? – dedi pichirlab”.

Uning gapi haligacha qulog‘im ostida jaranglaydi. Bu qanaqa axloq?! Biz qachon bu darajaga ko‘tarilamiz ekan?

Qosimjon RAZZOQOV sahifasidan olindi.

ZARDA

TILIM-TILIM TILIM

Tunov kun Chorsu bozorining darvozasi og‘zida elovlab tursam, nortuyadek uch-to‘rt davangir qo‘lida lo‘labolishday yelim xaltasi bilan bo‘g‘ziga atay zo‘r berib maslahat qilib turibdi. Biri, “Anaqa, moshkichirga anaqa po‘stdumba anaqa oldingmi, anaqa”, desa, ikkinchisi “Anaqani anaqa san anaqa qilsang anaqa” deydi; uchinchisi “Anaqala, kettu anaqaga”, deb yo‘l boshlab, shiypanglagancha surib berdi. Yo tavba, deb qiblaga yuzlanamanmi, bir payt qanorqop ko‘ylagi shalviragan, qorako‘lpo‘rma soch qo‘ygan bir juft shilnusxa bozorni boshiga ko‘taryapti. Bittasi “Sanga respekt!” desa, unisi “Layk, komentni bomba qil, rekka chiqaylu”, deb turibdi-yu! So‘kinyaptimi desam, ikkoviyam jirib qo‘ygan makkaday tirjayvolgan. Ajnabiy-pajnabiygayam o‘xshamaydi. Yoqaginamni izlab qoldim. Bu deyman, uydan chiqmay gazet o‘qib yotaverib, o‘zbek tili yangilanib ketganini bilmay qoldimmi yoki anavi choyxonaparastlar-u shilnusxalarni o‘g‘rivachchalarga o‘xshagan o‘zaro xufiya tillari bormikan, nima deding, Landavur?



Husan SODIQOV chizgan rasm.

Yana san tilimiz undoq, tilimiz bundoq deb sayraysan! Bozorga bor, o‘sha oshingga soladigan sarimsoqpiyozni so‘rasang, to “chestnok” demaguningcha ko‘katfurushing xom sarimsoq chaynagandek aftini burishtirib, sandan yuz burib turmasa man kafil! Shivitni “ukrop”, qo‘qongilosni “chereshnya”, qoqbaliqni “kapchonka”, sariyog‘ni “slivichni”, qiymani “farsh”, pishloqni “sir” deydigan “kulturniy”larni siri nimada ekan, a?

Tunov kuni de, Oloy bozorining non rastasida bir rosmana habash odam qurigandek mandan “Aka, bu yerdagi qaysi nondan xarid qilganim ma’qul?” deb dabdurustdan so‘rab qolsa bo‘ladimi? Man nimayam derdim, Landavur, “Iyuboyidan” dedim! Ajnabiy og‘zini ochib qoldi-ku! Eshitmadi deb o‘ylab, “Nima, san o‘zbekcha savol berib, o‘zbekcha javobga tushunmaydigan mandan ham battar ovsarmisan, “Iyuboyidan” deyapman-ku”, dedim! Habash non xarid qilmoqchi bo‘lganini ham faromush aylab, ko‘zlari katta-katta ochilgancha o‘zi bilan olib yurgan lug‘atini titkilay ketdi. Titkilay-titkilay axiyri qora terga botgancha manga ojizona termulib:

– O‘zbek tilini chorak asrdan buyon o‘rganib, “Iyuboy” degan so‘zga ro‘para bo‘lmagan ekanman, lug‘atlarda uchramaydigan bu noyob so‘z qaysi asrga tegishliligini aytib berolmaysizmi? – deb elangancha so‘rab qolsa!

Manam o‘zimni katta ulamolardek tutib, past tushgim kelmadi.

– Qaysi asrga tegishli ekani “savsem” esimda yo‘q, – dedim balanddan kelib.

Bu gal ajnabiyning afti bo‘g‘riqib, quruqshagan kesaknusxa labini yalagancha “s-s-s”lab qoldi. Lug‘atidan “s” bilan boshlanadigan so‘zlarni izlab, “savsem” “s-s-sapsem” “s-s-safsem”lab, “savsem” deganini topolmaganidan yana bir zambil loydek bo‘lib qoldi-ku! “Bizda buni yosh bolalar ham biladi”, deya o‘zimni maqtanishdan tiyolmay, ajnabiyga g‘urur bilan qaragandim, u yig‘lagudek bo‘lib peshonasiga bir shapati tushirgancha, bu tilni o‘rgandim deb o‘ylagan men ahmoq hali savodsiz ekanman, deganicha xayr-xo‘shni ham nasiya qilib jo‘navordi. Chamasi, biror tilmoch mullakasiga uchrab, yana til o‘rganishni davom ettirsa kerak-da, a?!

Nima deding, Landavur? Man aytgan “Iyuboy”, “savsem” o‘zbek tilida bo‘lmaydigan bo‘lsa, futbol desa o‘zini tomdan tashlagudek bo‘lib, o‘zingga yoqqan tomon gol-pol urgudek bo‘lsa, maydonni boshga ko‘tarib, yoppasiga “molodsi, molodsi” deb qiyqirishlaring o‘zbek tilida bormi? Sal shubhali harakat qilgan hakamni bo‘lsa “sudya...!” deb alqashi uchiga chiqqan alkashingniyam kaypini “kapeyka” qiladi.

– O‘zingam tilni yantoqqa sudravording-u, Ovsar. Lekin futbol alohida masala. Ayniqsa, sharhlovchilaringni oliptaligi Olimpni buzadi. “Kembek”, “vinger”, “autsayder”, “galkipr”, “fo‘l ishlatdi” degani yetmaganday, har bir jamoaga atab she’r to‘qiganiga o‘lgim qistaydi.

– O‘lmay tur, Landavur. Bir gap aytaymi? Ilgari bilsak-bilmasak “tvoya-moya” qilardik. Endi nima qilmoqchimiz?! Qachon o‘z tilimizni hurmatlashni boshlaymiz? Shu futbol deganingam o‘zimizni so‘zmi deyman. Bizni qishloqda beadabroq yigitchalarga “putingni yig‘ishtirib o‘tir”, ashaddiy bezbetlarga “putingni jirib qo‘yaman” deb, og‘zaki ogohlantirishardi. Bunisi hazil... Rostini aytsam, adabiyotdan dars beradigan kenja kelinimning aytishicha, mashhuri jahon Sobir Otamurod degich shoirni telig‘iromdagi kanalidagi obunachilarini yigirma dopqirga ko‘paytirsang ham ana shu to‘p teparlarning o‘yinini sharhlovchi Saydulla To‘sin “fanat”lari soniga yetmas emish.

– Qara-ya! San-ku mayli, san Ovsar bo‘lsang, man Landavurman, ismimiz jismimizga monand odamlarmiz, o‘qib diplomini sandiqqa tashlab qo‘ygan hakamlaring-u “oynayi jahon”da jo‘xorining so‘tasiday mikrofon tutgan muxbirlaringni o‘ylamay-netmay, yopishsa-yopishmasa chulchit so‘zlarni biyron-biyron chug‘urlashi odamning dilini xufton qivoradi. San kitob o‘qimay ham donosan, ammo man har-har zamonda jadid bobolarimizning bitiklarini titkilab turaman, shu-u, keyingi paytlarda Fitrat domlaning “Til – tafakkur jamoli” degan gapi mani ko‘p o‘yga toldiradigan bo‘lib qolgan de, Ovsar! Ilmli, ma’rifatli, o‘zini tanigan odam “anaqani anaqa” deb o‘tirmaydi, aytadigan gapini olim ham, dehqon ham tushunadigan tilda gapiradi. Quling o‘rgulsin, Yusufbek hojining kinodagi gaplari esingda bormi? Bay-bay! Qodiriy bobo o‘zbekchani qiyvorganlar-da o‘ziyam. Sani hakaming “respekt”lab, muxbiring “kreativ”lab ona tilini piypab turgan payti so‘z zargari bo‘lgan ota-bobolarni arvohidan cho‘chimasmikan?! Bu yoqda otarchi-yu mashshoqlar, laparchilar-u zangvozlaring til jonivorni boshqa elatlarni ohangiga solib, qiyratib-qiymalab yotibdi. O‘zi qo‘shiq bo‘lmagan gap ham qolmadi. Yodingda bo‘lsa, Hasan samovarning choyxonasida bir mashshoqning xotiniga “choy dam-la” degan gapni ashula naqoratiga qo‘shvorganini hangoma qilishuvdi. Xotini, “shuni to‘g‘richa aytsangiz bo‘lmaydimi?” desa, mashshoq “sani bir choynak choyingni deb ashulamni ohangini buzaymi?” dermish! Ovsar, san o‘sha habash ajnabiyni bekor xafa qipsan, u bizning tilimizni hurmat-izzat qilib toza o‘rganganidan, unga yopishgan xas-xashaklarni ko‘rmay qolgan.

– O‘zimizni pason ko‘rsatib, ilmsizligimizni, ma’rifatsizligimizni xas-po‘shlash uchun xas-xashaklarga o‘ralashib qolganmiz, demoqchimisan, Landavur?

– Ha, yasha, Ovsar, tushunganning sadag‘asi ketsang arziydi.

– Ha-a, endi bu yog‘ini fahmlamoq uchun jadid bobolarimizning da’vatlarini, asarlarini o‘qib borishga erinsang ham, jillaqursa “Jadid” gazetasini varaqlab tursang, “anaqa anaqa qanaqa”lab tilini qarg‘a cho‘qigandek tiltog‘lanib qolmaysan...

– Tiltog‘lanib deganing nimasi, Landavur?

OVSAR

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Pirnafasova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 6024
Lotin yozuvidagi adadi – 11916
Media kuzatuvchilar – 12213
Buyurtma: G – 640.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:00
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz